

جدید

2025-yil 16-may
№ 20(72)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

SHOIRNI SEVDIRDI, SHE'RNI SEVDIRDI

Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,
Yozganda ko'ksimga tig' urib yozdim.
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,
Qalamni qonimga botirib yozdim.

Qon asli yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k,
Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.
Qancha qoning bo'lsa – Vatan uchun to'k,
Qancha shoning bo'lsa – Vatanni ko'tar



(4-sahifada o'qing.)

TARADDUD

Mustaqillik ayyomini barcha bayramlar sarvari, jami tantanalar gulto'i deb sharaflaymiz. Darhaqiqat, har qanday shodiyonaning asl manbasi erkinlikda, inson baxt-u saodatining asosi ozodlikda, millat toleyi iqboli suverenitetda, Vatan kamoli va ravnaqi esa uning mustaqilligidadir. Shu boisdan har yili Istiqlol kuni yurtimizda keng nishonlanib, bizga cheksiz faxr-u surur bag'ishlash bilan birga erkning qadr-qimmatini qayta-qayta yodga soladi. Bu siyosiy izdihom tarix saboqlarini unutmazlikka, bugunning shukronasini dildan qo'ymaslikka undar ekan, yoshlarga komron kelajakning garovi aynan ana shu qutlug' kunga bog'liq ekanini ham bot-bot uqtiradi.

Bu yil eng ulug', eng aziz ayyomni nishonlashga hozirlik ertaroq boshlanyapti. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Kuni kecha "Turkiston" san'at saroyi faollar zalida yaqinlashib kelayotgan Mustaqilligimizning 34 yillik shonli

ISHONCH VA SHUKRONA AYYOMI



sanasini chinakam umumxalq bayrami sifatida munosib kutib olishga hozirlik ko'rish masalasiga doir yig'ilish bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov boshchiligidagi o'tkazilgan mazkur yig'inda Respublika Ma'


naviyat va ma'rifat markazi, Kine-matografiya agentligi, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Bastakorlar uyushmasi vakillari, faol ijodkor ziyolilar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda so'zga chiqqanlar tomonidan dunyoda geosiyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar tobora keskinlashayotgan, xalqaro munosabatlar tizimida yuzaga kelayotgan mojaro va ziddiyatlarni kuch ishlatish orqali hal etishga intilishlar kuchayib borayotgan bir vaziyatda xalqimizning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash, yoshlarda ertangi kunga ishonch tuyg'usini mustahkamlash, ta'sirchan zamonaviy vositalar orqali vatanparvarlik kayfiyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini jadal va sifatli olib borish muhimligi ta'kidlandi.

– Biz har yili ko'plab bayram-u tantanalar, yubiley va xalqaro anjumanlar o'tkazishga ko'nikib qoldik. Lekin istiqlol bayramini, ta'kidlab o'tilganidek, har safar go'yo birinchi bor o'tkazayotgandek mas'uliyat va javobgarlik hissi bilan fidokorona o'tkazishimiz kerak.

(Davomi 3-sahifada.)

E'ZUZ



JASORATNING TIRIK YODNOMASI

Poytaxtimizda qad rostlagan muhtasham "G'alaba bog'i" o'zining boy ma'naviy qimmat, tarixiy nafasi, yodgorlik va timsollari, shuningdek, xalqimizning Ikkinchi jahon urushidagi matonati va g'alabaga qo'shgan beqiyos hissasini mujassam etgani bilan aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda.

Xo'sh, yangitdan bunyod etilgan ikki majmua haqida nimalarni bilamiz? Undagi nozik ramzlar va milliy qadriyatlar nimalarda aks etadi? Keling, shular haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

"Xotira nuri" memorial yodgorligi

"Xotira nuri" loyihasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamkorligida Ikkinchi jahon urushida qatnashgan hamda front ortida fidokorona mehnat

qilgan o'zbekistonlik qahramonlar sharafiga barpo etildi. Mazkur kompozitsiya urushda qozonilgan G'alabani 80 yilligi munosabati bilan yaratilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi – suronli damrlarning tirik guvohlari bo'lgan fidoyi insonlarning jasorati, saboti va vatanparvarligini abadiylashtirish, kelajak avlod xotirasida barqaror saqlashdan iborat.

"G'alaba bog'i" bugungi kunda zamonaviy san'at, ilg'or texnologiya va tarixiy merosni uyg'un tarzda jamlagan betakror madaniy maskan sifatida yurtdoshlar va mehmonlarda katta taassurot qoldirmoqda. Ushbu yodgorlik nafaqat milliy xotiramiz ramzi, balki zamonaviy san'at va tarixiy haqiqatlarni mustahkam uyg'unlashtirgan holda, avlodlar o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini ham bajaradi.

Bog' – ajdodlarimiz jasoratiga bo'lgan shukronalik va hurmat, hayot va tinchlikning qadri, avlodlar davomiyligi ramzi sifatida milliy o'zligimizning tirik timsoli bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Majmuaga tashrif buyurgan har bir kishi bu yerda yoshlik va keksalikni eslatuvchi ikki qush timsolini ko'radi. Ma'lumki, qush o'zbek madaniyatida hayot, umid va qayta tug'ilish ramzi. Bu timsol humo qushi bilan bog'liq bo'lib, milliy birlik va tinchlikni anglatadi.

Qushlarning qanotlari faxriylar xotirasi, ularning hayot yo'li va saboqlari yozilgan kitob sahifalarini ifodalab, uni kelajak avlodlarga yetkazishga ishoradi.

Majmua atrofida gullar bilan bezatilgan maydon esa xursandchilik, hayotga muhabbatning ramziy ifodasidir.

(Davomi 3-sahifada.)

DAVRA SUHBATI

DENGIZLAR TUTASHGANDA

Ko'hna Ko'nyada Rumi va Navoiy "diydorlashdi"

Turkiyaning ma'naviy boshkenti – Ko'nya shahrida yetti iqlimdan kelgan olim-u fozillar nafis majlis qurdilar. Nufuzli anjuman Sharqning ikki ulug' mutafakkiri, maoniy mulkining sohibqironlari – Mavlono Jaloliddin Rumi hamda Hazrat Alisher Navoiyning bebaho merosiga bag'ishlandi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 7-fevral kuni imzolagan "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda bir qator muhim vazifalar belgilangan edi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Ko'nya shahri hokimligi, Saljuq universiteti hamda Mavlono tadqiqotlar instituti hamkorligida joriy yil 5-6-may kunlari o'tkazilgan "Mavlono Rumi va Alisher

Navoiy: Onado'lidan Xurosonga qadar ilm va hikmat yog'dusi" mavzusidagi xalqaro simpozium ham ana shu qarorga hamohang ekani bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy mashvarat Rumi va Navoiy merosiga doir qiziqarli ma'ruzalarga boy kechdi. O'zbekiston, Turkiya, Eron, Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Shimoliy Kipr, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi kabi mamlakatlarda faoliyat yuritib kelayotgan qilqalam olimlar, zabardast adabiyotshunoslari yangi tadqiqot-u topilmalari bilan o'rtoqlashdilar.

Alqissa, Ko'nyada Sharq-u G'arb adabiyotiga, ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ikki munavvar siymo go'yo diydorlashdi, ta'bir joiz bo'lsa, ikki bahri azim tutashdi.

Quyida gazetxonlar hukmiga ana shu xalqaro simpozium qatnashchilarining fikr-mulohazalari havola etilayotir.



Kemal Yavuz ATAMAN, Karabuk universiteti professori (Turkiya):

– Joriy yil fevral oyida O'zbekistonda o'tkazilgan "Alisher Navoiy va Sharq Rennessansi" xalqaro simpoziumida soha mutaxassislari qatorida qat-

nashish nasib etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev adabiyotga, mumtoz so'z san'atiga, xususan, hazrat Navoiy siymosiga yuksak ehtirom ko'rsatayotganiga bevosita shohid bo'ldim.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi rahbariyatining Turkiya ilm va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda Mavlono Jaloliddin Rumi va Amir Alisher Navoiy merosiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazish taklifi ayni ko'nglimizdagi gap bo'ldi.

(Davomi 2-sahifada.)

ORAMIZDAGI ODAMLAR

OLIMPNI ZABT ETGAN OLTINBOSH AVLOD



Jadidlarning birlamchi maqsadi – o'sib kelayotgan yosh avlodga zamonaviy bilim berish orqali jamiyatning barcha bo'g'inida yetuk kadrlarni tayyorlash edi. Zero, taraqqiyot chambaragi ilm egalari qo'lidadir.

Bugun ham oramizda "millat bolalarini o'qutmak" kabi ezuq ishga umrini bag'ishlagan fidoyi ustozlar, jadid bobolarning munosib izdoshlari talaygina. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi direktori, professor Ortiqboy Eshonqulov ana shunday salohiyatli olimlardan. U yoshlarning iste'dodini shakllantirish va ro'yobga chiqarish borasida o'z maktabini yaratgan mohir pedagog. U kishi rahbarlik qilayotgan litsey o'quvchilari respublikamiz ta'lim tizimi tarixida ilk bor kimyo va biologiyadan xalqaro fan olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritishgan.

(Davomi 5-sahifada.)

ONAJONIM – TABIAT

"MENIKI, SENIKI, UNIKI" EMAS, BARCHAMIZNIKI



Yashil iqtisodiyot degani bu faqat daraxt ekish yoki chiqindini qayta ishlash emas. Bu, eng avvalo, resurslarni tejash, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish va iqtisodiy yutuqlarni tabiatga zarar yetkazmagan holda qo'lga kiritish demakdir. Biroq, afsuski, bu tushuncha hanuzgacha ko'pchilik ongida chuqur joy olganicha yo'q. Ayrim yurtdoshlarimiz hali-hanuz eski, tabiatga zararli usullardan voz kechishga shoshilmayapti. Bu holat o'z-o'zidan ekologik savodxonlik darajasi bilan bevosita aloqador.

Tabiatimizda tabiatga nisbatan loqaydlik tobora tomir yoyib borayotganga o'xshaydi. Negadir bu hol bilan har kuni, ana boring, bugun ertalab ham yuzlashgandekman. Yo'l chetiga ekilgan-u qarovsizlikdan qurib-qovjirab borayotgan noyob qrim archasi, to'g'ridan to'g'ri yelim paketga tiqmajon qilib derazadan uloqtirilgan aralash axlat, qishda to'tiyo-yu hozir yonib qolgani sezilmaydigan ko'cha chiroqlari...

(Davomi 3-sahifada.)

MILLAT FIDOYLARI



birinchi o'zbek bibliografi
Akbarbek Dolimov haqida

(7-sahifada o'qing.)



DENGIZLAR TUTASHGANDA

Ko'ha Ko'nyada Rumi va Navoiy diydorlashdi



Boshlanishi 1-sahifada.

Ko'nya shahri hokimligi va Saljuq universiteti bu xayrli tashabbusni qo'llab-quvvatlagani esa shoyon mamnun etdi. Ko'nya anjumani O'zbekiston mezbonligida o'tgan ilmiy mashvartatning mantiqiy davomi bo'ldi deyish mumkin.

Bizlarga Rumi va Navoiy kabi olim-u orif, mutafakkir-u mutasavvuf zotlarga avlod bo'lmoq baxtini ravo ko'rgani uchun Yaratgan Egamga har qancha shukrona aytisak kam. Haq oshig'i bo'lgan bu ikki ulug' siymo umrini xalqni ma'rifatli qilmoqqa bag'ishlagan. Rumi va Navoiy, mubolag'asiz, bashariyatning yo'lbo'shchilari, tamaddun me'morlari, chin ma'noda komil insonlardir.

Bugun nafs-u havo ko'yiga kirgan odamzod asl maqsad-muddaosini unutgandek, hatto qiblasini-da yo'qotgandek. Axloq, adabiyot, ma'rifat tansiq va tanqis ne'matga aylangan hozirgi davrda Rumi va Navoiy qoldirgan merosning ahamiyati, qadr-qimmatini chandon ortgan. Hikmat va so'z san'atini vobasta eta bilgan bu zotlarning etagidan tutganlar, shubhasiz, najot topgusi!



Lindita XHANARI,
Tirana universiteti professori
(Albaniya):

– Jahon xalqlari, xususan, turkiy dunyo uchun ulug' murabbiy sanalgan Mavlono Jaloliddin Rumi abadiy orom topgan Ko'nya shahrida o'tkazilgan xalqaro simpoziumga taklif etilganimdan behad masrurman.

Albaniya va O'zbekistonni 4000-5000 chaqirim masofa ajratib turadi. "Daholar o'lmaydi" deganlari rost. Besh asr avval yashab o'tgan buyuk shoir Alisher Navoiy turli jug'rofiy mintaqalarda joylashgan ikki o'lkani yaqinlashtirmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albaniya-da navoiyshunoslik arab alifbosi istifoda etilishi bilan bog'liq holda shakllandi. Usmonli imperiyasi bilan yaqin aloqalar o'rnatilgan XVII–XVIII asrlarda mamlakatimizda arab alifbosidan foydalanish boshlangan.

Albaniya davlat arxivida arab alifbosida bitilgan arnavut adabiyotiga oid qo'lyozmalar – doston, qasida, g'azal, mavlid matnlari va lug'atlar saqlanmoqda. Bu asarlar yaratilgan XVIII asr vatanim tarixiga muhim yangilanish, madaniy evrilishlar davri sifatida muhrlangan.

Alban adabiyotining rivojlanishiga turkiy, arab hamda forsiy tillarda ijod qilgan qalam ahli katta ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Ular orasida eng ulug'i va tengsizi, shubhasiz, amir Alisher Navoiy hazratlaridir. Albaniya davlat arxivi va Tirana milliy kutubxonasi bisotida Navoiy asarlarining turli qo'lyozmalari mavjud. Izlanishlar asnosida "Mahbub ul-qulub"ning yangi qo'lyozmasini topishga muvaffaq bo'ldik. Ushbu qo'lyozma asosida Darvesh Husayn bitiklari orasida topilgan nazmiy parchalarni asl matnga chog'ishtirib tahlilga tortdik. Bundan tashqari, Navoiy ijodining vorisligi masalasini ham tadqiq etdik. Xususan, Navoiyning Nezim Frakulla, Hasan Ziko Frakiri, Dalip Frashiri kabi alban yozuvchilari ijodiga ta'sirini o'rganib, ulug' mutafakkirlar asrlar o'tsa-da, yo'ichi yulduz kabi kelgusi avlodlarga

rohi rostni ko'rsatishiga yana bir karra amin bo'ldik.



Mehroddin OG'OIY,
Muhaqqiq Ardabil universiteti
dotsenti (Eron):

– Dunyo xalqlari ardoqlaydigan ikki mutafakkir ijodini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro simpoziumning tabarruk Ko'nya shahrida o'tkazilayotgani ramziy ma'noga ega. Mavlono Jaloliddin Rumi 122-maktubida uni yod etuvchilarni alqab bunday yozadi:

*Har ki moro kunad ba neki yod,
Yodash andar jahon ba neki bod.*

Ya'ni: Kimki bizni yaxshilik ila xotirlasa, undan ham jahonda ezgu nom qolsin.

Hazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda esa:

*Bu gulshan ichraki yo'qdur baqo
guliga sabot,*

Ajab saodat erur chiqsa

yaxshilik bila ot.

Xalqaro ilmiy anjuman ikki mutafakkirning ana shu o'g'itiga uyg'un ravishda o'tdi.

Ma'lumki, amir Alisher Navoiyning ona tili turkiycha edi, biroq nodir iste'dod sohibi bo'lgan bu zot ham turkiy, ham forsiyda yuksak mahorat-la qalam tebratgan. Qur'oniyl lisonni mukammal bilgan shoir forsiy va turkiy she'rlarida ham arabiy so'z-u iboralardan mohirona foydalangan. Amir Alisher Navoiy forsiy hamda turkiy adabiyot o'rtasida mustahkam ko'pri, ikki xalq adabiyotini bog'lovchi oltin halqa hisoblanadi. Jahon ahli uning ijodini hayrat, havas hamda ayrica zavq bilan o'rganishi ham bejiz emas, albatta.

Temuriylar davlatining yorqin namoyandasi sanalgan amir Alisher Navoiy forsiyni qay tariqa mukammal o'rgangani, tasavvufiy tushunchalarni fors va arab tillarida qaysi usullarda ifodalagani hamda bu ikki lisonning adabiy merosini qanday boyitganini o'rgandik. Zullisonayn shoiring ikki muazzam adabiyotga mislsiz hissa qo'sha bilgani tahsinga loyiqdir.



Adnan KARAIMOILLO'G'LI,
"Mavlono tadqiqotlari" jurnali bosh
muharriiri, professor (Turkiya):

– Mavlono Jaloliddin Rumi ham, Hazrat Alisher Navoiy ham o'z asarlarida dunyo xalqlarini birlik, ahillikka undagan edi. Qarangki, ular oradan shuncha asr o'tib, yana jahonning turli o'lkalaridan kelgan olimlarning boshini qovushirmoqdalar.

Mavlono Rumiyning hasb-u holida Balx, Samarqand kabi shaharlar alohida zikr etiladi. Oradan ikki yuz yil o'tib, Alisher Navoiy ham shu shaharlarda istiqomat qilgani tasodif

emas. Mavlono "Masnaviy"da Navoiy tavallud topgan Hirot shahrini ham tilga olgan. Darhaqiqat, ikki mutafakkirning hayotida ham, ma'naviy olamida ham umumiylik, mushtaraklik bisyor.

Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Rumiyni bir necha o'rinda eslab o'tgan, "Mahbub ul-qulub"da esa uni forsiy she'riyatning ulug' namoyandasi deya e'tirof etgan.

Rumi va Navoiy o'rtasidagi o'xshashliklardan yana biri har ikki ijodkorning jamiyat ravnaqiga kamar-basta bo'lganida namoyon bo'ldi. Navoiy o'nlab olim-u ijodkorlarga valine'matlik qilgani, raiyat uchun yuzlab rabot, masjid, madrasa, xonaqoh barpo etgani tillarda doston. Xalqqa, davlat arboblari ga yo'l ko'rsatgan Rumi ham haligacha o'z asarlari bilan kishilik jamiyatiga murabbiylik qilib kelayotir.

Mavlono Rumi XIII asrda buyuk Xurosonni Onado'lga ko'chirib kelgani kabi Navoiy va uning zamondoshlari XV asrda Ko'nya va Onado'lini buyuk Xurosonga olib kelishdi. Bugun tarixiy robitalar qayta tiklanayotgani qanchalar soz!



Munir DRKICH,
Sarayevo universiteti professori
(Bosniya va Gersegovina):

– Asrlar davomida Usmonli davlati tarkibida bo'lgan Bosniya arab, fors va turk tili musulmon madaniyatining eng chekka – g'arbiy hududi hisoblanadi. O'lkamizda Fuzuliy, Boqiy kabi turkigo'y shoirlar asarlari bilan bir qatorda Alisher Navoiy merosi ham tarqalgan edi. Afsuski, mamlakatimizda yaqin o'tmishda ro'y bergan urushda Qo'lyozmalar fondi joylashgan binoga bomba tushib, 10 mingdan ziyod nodir qo'lyozma yonib ketdi. Ular orasida Navoiyning mo'tabar asarlari ham bor edi...

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Mahbub ul-qulub" pandnomasi hamda g'azallar devonining qo'lyozmasi Bosniya va Gersegovina davlat arxivida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning alohida qimmatli shundaki, undan Navoiyning turkiy g'azallari bilan birga forsiy muammolari ham o'r in olgan. Ma'lum bo'ladiki, Navoiy zullisonayn shoir sifatida Bolqon yarimorolida ham shuhrat topgan. O'zbekistonlik olimlarni ham qimmatli qo'lyozmalarni tadqiq etishda hamkorlikka taklif etib qolamiz.



Vohit TURK,
Istanbul madaniyat universiteti
professor (Turkiya):

– Adabiyotshunoslik ilmi faqat noyob qo'lyozmalar qatlaridagi sirlarni inkishof etish, kunlarni tunlarga ulab kutubxonada zahmat chekishdangina iborat emas. Olimlik o'zaro suhbat, fikr va tajriba almashuvini ham talab etadi. Ushbu anjuman bahonasida turli mamlakatlardan kelgan olimlar bilan tanishuv, ularning mazmundor

ma'ruzalarini tinglash barchamiz uchun manfaatli bo'ldi.

Kamina simpoziumda "Turkiyada Alisher Navoiyga doir tadqiqotlar" mavzusidagi ma'ruza bilan qatnashdim. Jumladan, Onado'li ahlining Navoiy ijodiga oshno bo'lishi haqidagi ilk faktlarni, xususan, Oshiq Chalabiy tazkirasidagi ma'lumotlarni o'rtoqlashdim. Usmonli shoirlari Navoiy g'azallariga naziralar bitgani, "Majolis un-nafois" Onado'li turkchasiga birinchilardan bo'lib tarjima etilgani, ulug' mutafakkir asarlarini tushunishga yordam beruvchi lug'atlar tuzilgani ta'sir ko'lam qanchalar katta bo'lganini tasdiqlaydi.

O'tgan asrning 60-yillarida Turkiyada Navoiy merosiga qiziqish yanada kuchaydi. Bu sirada Ali Nihat Tarlon, Muhammad Sobir, Gunay Kut, Gunul Altay, Kamol Erarslan kabi olimlarning doktorlik dissertatsiyalarini e'tirof etish joiz. Umuman, keyingi o'n yilliklarda Navoiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar soni, sifati ortdi, shoir asarlarining deyarli hammasi nashr etildi. 2021-yili yozgan maqolamda Turkiyada Navoiy ijodiga bag'ishlangan 400 dan ziyod ilmiy ish olib borilganini qayd etgandim. 2025-yilga kelib ular soni 800 ga yaqinlashdi. To'rt yil ichida ikki barobar o'sish! Bu – O'zbekiston rahbariyatining navoiyshunoslik ilmi-ga ko'rsatayotgan e'tibori, qolaversa, turkiy dunyoda birlik, birdamlik ruhi-ning oshib borayotgani mahsulidir. Darhaqiqat, Alisher Navoiy – butun turkiy madaniyat tarixidagi beqiyos va nodir siymo. Ul zotni bilish, targ'ib etish yo'lida ko'p va xo'b sa'y-ko'shish ko'rsatmog'imiz lozim.



Umedullo MAHMUDOV,
Samarqand xalqaro texnologiya
universiteti huzuridagi O'zbek tili
va madaniyati markazi rahbari:

– Mavlono Jaloliddin Rumi hamda Hazrat Alisher Navoiy ta'lif etgan asarlar bamisoli javohirlar ummoni. Ayni chog'da, ularning podshohi vazirlar, ahli raiyat, do'st-u aqrabolari bilan olib borgan yozishmalari ham ayrica ahamiyat kasb etadi. Olimlar ikki siymoning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq tarixiy dalillarni yuzga qiqarishda munshaotga alohida e'tibor qaratishi boisi ham shu. Biz ham Rumi va Navoiy maktublarini qiyosiy tahlil etarak, yozishmalardagi o'zaro uyg'un nuqtalarni aniqladik. Alisher Navoiy shogirdi Abdulloh Marvoridga yo'llagan maktubida "Olamni obod etishda musobaqalashgini", deb ta'kidlagan edi. Bir necha asrlik tarixga ega bu o'git aynan bugungi davr, bugungi insoniyatga qaratilganidek...

"Hikmatli kalima – mo'minning yo'qotgan narsasidir. Uni qayerda topsa ham olishga haqli", deyiladi Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadisi sharifda. Har bir satri hikmatga yo'g'rilgan Rumi va Navoiy ijodini yaxlit tarzda, yagona tarhda o'rganish bo'yicha ilk qadam qo'yildi. Galdagi xalqaro anjumanni O'zbekistonda o'tkazish taklifi ko'pchilikka manzur bo'ldi. Shubhasiz, bunday ilm majlislari mamlakatlararo do'stona robitalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davra suhbatini
Olimjon DAVLATOV olib bordi.

TA'LIM TAJRIBASI

"BAXT ILMDAN TUG'ILADI"

Ha, niderlandlarda shunday maqol bor.

Har bir mamlakat taraqqiyot ko'lam turli sohalarda olib boriladigan izchil siyosat, jumladan, ta'lim tizimining naqadar munosib tashkil etilgani bilan ham o'lchanadi. Jahonning yetakchi davlatlaridan biri sanalgan Niderlandiya qirolligida yo'lga qo'yilgan ushbu tizimning o'ziga xosligi, tajribasi, uslub-yo'rig'i gazetxonlarga qiziq bo'ladi degan o'y bilan kuzatuvlarimizni bir joyda jamladik.

Ta'lim tizimi reytingini baholab boruvchi xalqaro tashkilotlar ro'y-xatida Niderlandiya 3-o'rinni egallab kelmoqda.

Maktab ta'limi tizimi turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Odatdagi bepul davlat maktablaridan tortib, pulli xalqaro o'quv yurtlariga qadar bo'lgan maktablarni tanlash har kimning o'z istagi va imkoniyatiga bog'liq. E'tiqod erkinligi mamlakat taraqqiyotining tamal toshiga aylangan Niderlandiyada katolik,

qismi maktab ma'muriyati tomonidan moliyalansa ham, ota-onalardan yillik ixtiyoriy hissa so'raladi. Bu miqdor har bir maktabda ota-onaning daromadiga qarab farq qilishi mumkin. Tadbirlar ota-onalar kengashi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Maktablarda sinfdan tashqari mutolaa uchun maxsus komissiya tuzilgan bo'lib, bu ishga asosan otalar jalb etiladi. Ular haftaning ma'lum bir kunida o'quvchilarga kitob o'qib eshittirishadi.



protestant va islomiy asosga ega bo'lgan bilim maskanlari tengmateng faoliyat yuritib keladi. Shuningdek, bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xosliklardan kelib chiqqan holda maxsus maktablar tizimi ham shakllantirilgan.

Ota-onalar farzandlarini 4 yoshga to'lishi hamono boshlang'ich ta'lim maskaniga berish huquqiga ega, ammo 5 yoshidan boshlab majburiy bo'lib, bu ta'lim o'g'il yoki qiz 12 yoshga to'lguniga qadar davom etadi. Maktablarning aksariyati davlat tomonidan moliyalashtirilishi va o'qish majburiy ekanligi bois o'quvchi uzrli sababsiz hatto bir kun maktabga kelmasa ham ota-onalar jiddiy jarimaga tortilishlari mumkin. Boshlang'ich maktabni bitirish arafasida o'quvchilar avvalgi yillardagi o'zlashtirishi va davomati natijalariga asoslangan tavsiya-yo'llanma olishadi. Bu tavsiyalarga muvofiq, o'quvchilar o'rta ta'limning navbatdagi bosqichlarida o'qishini davom ettirishlari mumkin bo'ldi. Masalan, VMBO – o'rta kasb-hunar ta'limida 4 yil, HAVO – yuqori umumiy o'rta ta'limda 5 yil va VVO – ilm-fan yo'nalishidagi o'rta ta'limda 6 yil mashg'ul bo'lishadi. VMBOni bitirganlar kasb-hunar kollejlari ga, HAVOni tamomlaganlar institutlarga va VWO ni muvaffaqiyat bilan nihoyasiga yetkazganlar to'g'ridan to'g'ri universitetlarga yo'llanma olishadi.

Niderlandiyaga yangi kelgan xorijliklarning hali bu tilda so'zlasha olmaydigan farzandlari ham 4 yoshidan boshlab 7 yoshigacha oddiy maktabga qatnab, qo'shimcha ko'lov yordamida golland tilini o'rganishadi. 7 yashar xorijlik bolalar "schakelklas" (oralik sinf) yoki "nieuwkomersklas" (yangi kelganlar sinfi)da til o'rganib, so'ng 12 yoshiga qadar boshlang'ich ta'lim olishadi. 12 yashar yangi kelgan bolalar esa "Eerste Opvang Anderstaligen"da (o'zga tillilar uchun dastlabki maktab) o'qishlariga to'g'ri keladi va bu holatda boshlang'ich ta'lim muddati yana bir yilga cho'zilishi mumkin.

Aytish joiz, maktablarda muntazam tarzda o'quvchilar uchun turli tadbirlar va ekskursiyalar uyushtirib turiladi. Bunday tadbirlarning aksar

Maktab ma'muriyati ma'lum formalarda kelishlarini o'quvchilardan aslo talab etmaydi, bolalar o'zlari uchun qulay kiyimlarda darslarga qatnashaveradi. E'tibor o'quvchilarning o'zlarini erkin his etib, chuqur bilim olishlariga qaratilgan bo'lib, tozalik va ozodalikka alohida ahamiyat beriladi.

Aytib o'tganimizdek, boshlang'ich maktab bitiruvchilari VMBO, HAVO va VWOda o'qishlarini davom ettirib, bulardan so'ng kasb-hunar kollejlari, institut va universitetlarda o'zlari tanlagan mutaxassislikka ega bo'lishadi. Yana bir qiziqarli jihati shundaki, o'sha o'rta ta'limni nihoyasiga yetkazgan, ammo kelgusi hayotining bosqichlari haqida hali tayinli reja qilolmay turgan o'g'il-qizlarning ayrimlari "tussenjaar" (oralik yil yoki akademik ta'il) imkonidan foydalanib, shu yil davomida o'z imkoniyati va istaklarini puxta o'ylab ko'rishadi hamda oradagi bir yillik tanaffusdan so'ng o'z qarorlariga muvofiq kasb-hunar yoki oliy ta'lim yo'nalishida o'qishni boshlashadi hamda o'zlarining kelajak hayotlari binosini tiklashga jidd-u jahd ila kirishishadi.

Anglaganingizdek, Niderlandiya ta'lim tizimida o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashuv, erkin muhit, ota-onalar bilan hamkorlik va katta hayotga tayyorgarlik masalalariga ko'proq e'tibor beriladi. Bu tizim tarbiya va ta'limni bir butun jarayon sifatida ko'rishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham tarbiya masalasiga jiddiy qaraladi. Binobarin, bolani faqat bilim emas, axloq, tashabbuskorlik va jamiyatda faol bo'lishga o'rgatish zamon talabidir. Bu borada jaddilarning ta'limga bo'lgan ilg'or qarashlari – muallim shaxsiy namuna bo'lishi, tarbiyada ma'naviy asoslarning ustuvorligi, dunyoqarashni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish kabi tamoyillardan o'rnak olish, ayniqsa, muhimdir. Biz bu mezonlarni ko'plab rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida uchratishimiz mumkin. Jumladan, Niderlandiyada ham.

Shahodat ULUG',
Niderlandiya qirolligidagi o'z
muxbirimiz



Boshlanishi 1-sahifada.

Ushbu monumentning ramziy kitob shaklidagi sahifalarida quyidagicha bitiklarni o'qiymiz:

“Qo'rquv yonimizda edi, lekin Vatanga muhabbat kuchliroq edi”.

“Ha, qo'rqinchli edi. Lekin chekinishga yo'l yo'q, ortimizda Vatan bor edi”.

“Har bir qadam og'riq berardi, lekin, ortga yo'l yo'q”.

“Men bolalarim urushsiz yashashini orzu qilardim”.

“Mukofot uchun emas, Vatan uchun, bolalarimiz uchun jang qildik”.

“Millat fidoyilari” bog'i

Mustaqillik yillarida Vatan himoyasi yo'lida jon fido qilgan harbiylar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “G'alaba bog'i” tarkibida “Millat fidoyilari” bog'i ham barpo etildi.

Kompozitsiya Davlat bayrog'ida tasvirlangan yarim oy va 12 ta yulduz ko'rinishida joylashgan. Yarim oyning old tarafidagi favvordan sharshara ko'rinishida suv oqib turadi, orqada farzandini harbiy xizmatga kuzatgan ota-ona siymosi va uning ikki yon tarafida kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari va xodimlari barelyefi o'rnatilgan.

Yarim oyning orqa tomonida haykallar kompozitsiyasi joylashgan bo'lib, uning markaziy qismida 50–60 yoshlar atrofidagi ota va ona timsoli aks etgan. Bu timsol orqali Ota-Ona mehr va sadoqat ramzi sifatida tasvirlangan.

Kompleksning orqa qismida o'rnatilgan arka muqaddas qadriyatlar va shafqat ramzi. Tishlangan non esa o'zbek oilasining farzandiga bo'lgan umidi, mehri va intizorligi bo'lib, “Oy borib, omon qayt!” degan xalq duosini yodga soladi.

Arkaning chap tomonida xizmat burchini o'tayotgan farzandning maktublari tasvirlangan bo'lib, ular orqali ota-onaga bo'lgan mehr, halol xizmat va sadoqat ifodalanadi.

O'ng tarafda Sherdor madrasasi bezaklaridan ilhomlanib yaratilgan sher timsoli joylashgan. Bu timsol jasorat va o'z so'zining ustidan chiqadigan xalq farzandlarining ramzi.

Ota ortidagi chiroq umid va o'chmas xotira ramzi sifatida alangalanib turadi. U xalq xotirasida abadiy yonib turadigan muhabbat va fidokorlik timsolidir.

Mehrob oldidagi milliy uslubda ishlangan ikki ustun – milliy g'oyalarga suyangan davlatning tayanchi, Ona haykalining chap orqa tomonida joylashgan beshik – vatanparvar va jasur farzandlar tarbiya topgan muqaddas uy muhitini ifodalaydi. Yoniga taxlangan ko'rpato'shaklar esa ota-onaning farzandiga bo'lgan umidi, tinch va farovon hayoti haqidagi orzu-armonlar jamlanmasidir.

Ushbu majmua ona yurtimizga uyushtirilgan terrorchilik xurujlariga qarshi kurashda, shuningdek, o'z harbiy burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan askar va ofitserlarning qutlug' nomlari va o'chmas xotirasini abadiylashtiradi.

Ota va Ona haykalining chap tomonida Mudofaa vazirligi harbiylari tasvirlangan. Ular chin ma'noda Vatan himoyasining to'laqonli ramzi.

Harbiy uchuvchi katta leytenant Sher-muhammad Ashirov qiyofasida harbiy-havo kuchlari gavdalansa, uning yonida o'qchi kichik serjant Yunus Oxunov obrazida hujumga shaylanib turgan jangchi surati

namoyon.

Markazdagi serjant Ulug'bek Bar-noyevning yuzidagi shijoat, ishonch va boshqaruvchanlik qobiliyati Vatan himoya-sining markaziy tayanchi sifatida sadoqatni ifodalaydi. Leytenant Sayyor Sadinovning belidagi avtomat, sokin va hushyor jangchi ruhiyatini ochib beradi. Jangchi-feldsher serjant Qahramonjon Madolimov misolida esa najotkorlik, ruhiy madad tasviri aks etgan.

Majmua fon qismida tasvirlangan tog'lar – mamlakatimiz barqarorligi va tabiiy himoyasi ramzi bo'lib, samolyot, vertolyot va tanklar yurtimizning harbiy qudrati, strategik salohiyatidan darak beradi.

Kompozitsiyaning keyingi qismida Davlat xavfsizlik xizmati xodimlarini, ayniqsa “Mehr” operatsiyasida faol ishtirok etgan mard o'g'lonlarni ko'rishingiz mumkin. Ular

xususan podpolkovnik Malika Karyagdiyeva alohida e'tirofga loyiq. U bojxona tizimidagi ilk ayol xodima sifatida jonkuyarlik va fidoyilikning timsoli.

Kompozitsiyaning o'ng qanotida – Ota-Ona siymosining yonida, Ichki ishlar vazirligi xodimlari tasvirlangan. Chap tomonda polkovnik Bahodir Hoshimov mardonavor qiyofasi, sinchkov nigohi bilan ko'rinish beradi.

Sapyor esa maxsus himoya kiyimida tasvirlanib, u portlash va xavfli holatlarga qarshi kurashdagi jasorat namunasidir. Qurol ko'targancha o'q o'tkazmaydigan kamzul kiygan askar hushyorlik va jangovar tayyorgarlik ifodasidir. To'rtinchi askar esa himoya qalqoni, yuzida niqob hamda o'q o'tkazmaydigan zirhli libosda.

Beshinchi joydagi patrul-post xizmati xodimi – jamiyat tinchligi va xavfsizligini


va Oliy Majlis binosi aks etgan bo'lib, ular davlat suvereniteti, xalq irodasi va siyosiy barqarorlikka ishoradir.

Keyingi qismdan Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining haykallari o'rin olgan. Bu sahna kishida insonparvarlik, mas'uliyat va tezkorlik tuyg'ularini uyg'otadi. Har bir obraz – favqulodda holatlarda jonkuyarlik ko'rsatgan, inson hayotini saqlab qolishga jon-jahdi bilan kurashayotgan qahramonlar haqida so'zsiz hikoya qiladi.

“Millat fidoyilari” bog'idagi 12 ta yulduzning bir yon tarafiga mustaqillik yillarida Vatan himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan 196 nafar vatandoshimiz nomi qayd etilgan. Yulduzlarning ikkinchi yon tarafida o'rnatilgan 60 dona monitorda esa siz-u bizning tinchligimiz evaziga jonidan kechgan qahramonlar, ularning faoliyati aks etgan foto va video materiallar namoyish etib boriladi.

Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan bo'lib qoladi.

Shavkat MIRZIYOEV



Suriyadagi urush o'chog'ida qolgan ota-onasiz bolalarni Vatanga olib kelishdek yuksak missiyani bajargan qahramonlar sifatida jonlanadi. Shuningdek, ikki nafar prokuratura xodimi – huquq-tartibot tizimiga xos professionallik, xolislik tamoyillarini namoyon etadi.

Kompozitsiyaning navbatdagi qismidan sud tizimi va bojxona organlari xodimlari obrazlari joy olgan. Sud xodimi chap qo'lida kitob, o'ng qo'lida sud taxtachasini ushlab turgan holda tasvirlanib, u qonun ustuvorligi, bilim va xolislik mas'uliyatini ifoda etadi.

Uning orqa fonidagi adolat ramzi – tarozi tasviri sud xodimining qaror qabul qilishdagi adolati, sadoqati tamsili. Shuningdek, Davlat bojxona qo'mitasining to'rt nafar xodimi,

ta'minlashdagi doimiy hushyorlik va sadoqat ramzi.

Kompozitsiyaning navbatdagi qismida Milliy gvardiyaning to'rt nafar askari timsol sifatida gavdalangan. Ularning mustahkam irodasi va diqqat bilan yondashuvi Vatan oldidagi sharaflari mas'uliyatni, qo'yilgan vazifaga bo'lgan yuksak sadoqatni ta'kidlaydi.

Undan keyingi haykallar Prezident davlat xavfsizlik xizmati xodimlariga bag'ishlangan. Ularning mustahkam irodasi va diqqat bilan yondashuvi Vatan oldidagi sharaflari mas'uliyatni, qo'yilgan vazifaga bo'lgan yuksak sadoqatni ta'kidlaydi.

Kompozitsiyaning orqa fon qismida Yangi O'zbekiston bog'idagi Mustaqillik Stellasi

Xulosa qilib aytsek, “G'alaba bog'i” va “Millat fidoyilari” majmualari mohiyatan Vatan himoyasi yo'lida shahid ketgan qahramonlar xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodga vatanparvarlik, jasorat va sadoqat tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan muqaddas maskandir. Har bir haykal, timsol va ramz orqali el-yurtimizning shonli tarixi, milliy qadriyatlari va fidokor farzandlarining hayoti ifodalanadi. Bu majmualar nafaqat milliy xotiramiz, balki bugungi tinchligimiz, ertangi kelajagimiz uchun ham o'ziga xos betakror saboq sifatida g'oyat qadrlidir.

Bobur ELMURODOV,
kapitan

Boshlanishi 1-sahifada.

Bir qarashda oddiy, kundalik manzaralar – ko'z ko'nikkan bu tasvirlar ortida chuqur ijtimoiy va ma'naviy muammolar yotibdi. Taassuf, biz qachonki jiddiy ekologik falokatlar, avtotirli statistik ma'lumotlar taqdim etilgan mahaldagina yolla ushlashga o'rganib qoldik. Bu ilatning nomi nima?

Har bir insonning tabiatga nisbatan ehtiyotsizligi, arzimastek tuyulgan beparvoligi jamlanib, ulkan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Biz o'z xudbinligimiz, tanballigimiz, kaltafahmimiz, farosatsizligimizni oqlaydigan turli-tuman ro'kachlar o'ylab topishga ustamiz. Hashar kunlari ko'chamizdagi qirichcha chetiga qadalgan ko'chatga bir qultum suv quyishga yaramay, vaqtimiz tig'iz ekanini pesh qilamiz. Aslida kun uzog'i telefonga qo'shqo'llab yopishib, bargni bargga, mevani mevaga xillab, “uchmunchoq” o'ynab “slot” o'yini uchun soatlab behuda vaqt sarflashga erinmaymiz. Ochig'ini aytсам, internet olami va real hayot orasidagi biz kabi ovoralar shaxsiyatida inert tuyg'u – hozirgi soniyasi bilan yashash, odamovilik, xonanishinlik, virtual bangilik jamlanmasi tez sur'atda shakllanib boryapti. Ana shu dardi



bedavoga chalingan “zed” avlod ertaga vatan va millat taqdiri uchun qayg'uradigan, yurtini himoya qila oladigan, farzandlariga tarbiya berishga layoqatli qatlam sifatida shakllana oladimi? Biz bugun ana shu haqida bosh qotirishimiz kerak. Menimcha, bu muammoning ma'lum ma'nodagi yechimini yana o'sha virtual olamdan qidirib, yoshlarimiz ruhiyati va qiziqishini inobatga olgan holda milliy mediakontentlar yaratishimiz kerak. Bu borada, avvalo, tabiat bu shunchaki manzara emas, balki tirik organizm hamda ayni paytda bizning tirikligimiz

manbayi ekanligini jon-u jismiga singdirib borish taqozo etiladi. Ana shu tariqa ekosavodxonlik asosi yaratiladi, ekomadaniyat shakllantiriladi. Statistika ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 350 million tonna plastik chiqindilar hosil qilinib, shundan 2 million tonnasi suv havzalariga tashlanar ekan. Bu ko'rsatkich taxminan 0,6 foizga to'g'ri keladi. Qiziq, dunyo darajasida olingan bu raqam taqsimoti bizning bag'rikeng diyorimizga qanday nisbat taqdim etarkan? Chunki istagan suv havzasiga, xohlagan dam olish maskaniga nazar tashlasangiz, o'ta

“MENIKI, SENIKI, UNIKI”
EMAS, BARCHAMIZNIKI

ayanchli ahvolni ko'rishingiz tayin. Ma'lumki, bu chiqindi turi yuz yillab chirimaydi. Maydalanib mikroplastikka aylanadi va suv, tuproqqa singib, tirik organizm hayotiga xavf tug'diradi.

Ilgari bitta sog'lom daraxt bir kunda to'rt nafar inson uchun yetarli kislorod ishlab chiqaradi, degan tashviqot tushunchasi bor edi. Bugun ma'lum bo'lyaptiki, bir inson yiliga taxminan 740 kg kislorodga muhtoj. Daraxt kun davomida, ya'ni quyosh chiqqanidagina ro'y beradigan fotosintez jarayonida karbonat angidrid yutib, kislorod chiqaradi. Ilmiy manbalarga ko'ra, bitta sog'lom daraxt yiliga taxminan 100–120 kg kislorod ishlab chiqaradi. Demak, har birimiz to'laqonli nafas olishimiz uchun sog'lom 7-8 ta daraxt zarur ekan. Buni aholi soniga ko'tarsak, 270 milliondan ortiq og'och o'stirishimiz kerak bo'ladi. “Gazeta.uz” elektron nashri dalolatiga ko'ra, hozirda mamlakatimizda 250 million atrofida

daraxt ko'klab turibdi. Lekin ularning qanchasi to'laqonli kislorod manbayi sanaladi-yu, qanchasining o'zi havoga muhtojligining hisob-kitobi yo'q. Baharnav, quruq chamalanganida ham 20 million atrofida daraxt taqchilligi yuzaga chiqaypti. Bir daraxt kessang, o'nta ek, degan naql bugun o'ta dolzarb ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar ham endi nazariy emas, kundalik hayotda o'zini yaqqol namoyon qila boshladi. Ob-havoning keskin o'zgarishi qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, o'z-o'zidan inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nafas yo'li kasalliklari, yurak-qon tomir xastaliklari, allergiya epidemiyasi va paydo bo'layotgan ko'plab virus illatlari ayni nosog'lom ekologik vaziyat bilan bog'liq.

Biz muammo va uning oqibatlariga to'xtalaypmiz. Xo'sh, yechim qayerda? O'zimizda! Tabiatni asrash yo'lidagi

eng muhim qadam har kim o'zgarishni o'zidan boshlashidir. Oddiy kundalik odatlarni o'zgartirish, masalan, suvni tejash, elektr energiyasidan oqilona foydalanish, chiqindilarni to'g'ri saralash ekologik holatni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Qayta ishlash mumkin bo'lgan chiqindilar (plastik, qog'oz, shisha, metall) alohida yig'ilsa, qayta ishlashga imkon yaratiladi.

Yo'llarda jamoat transportiga ustuvorlik berish, piyoda yurish yoki velosipeddan foydalanish ofat-muhtiga chiqariladigan zararli moddalar miqdorini kamaytiradi.

Har birimizning tabiatni asrashga qo'shadigan kichik hissamiz umumlashib, ulkan ulushga aylanishi tayin. Bu borada ekomadaniyat niholining ildizi ta'lim va tarbiyaga bog'liqligi, ya'ni bolalar bog'chasidan tortib, maktab va oliy ta'lim muassasalarigacha bo'lgan barcha tizimda yosh avlod ko'nglida tabiatga mehr uyg'otish zarurati barchamizga ayon. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “**Farzandlarimizni yoshlikdan boshlab ona tabiatni sevish, uni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashimiz kerak. Bu – har bir ota-onaning, har bir pedagogning muqaddas burchidir.**”

Davronjon ABDULLAJONOV

ISHONCH VA SHUKRONA AYYOMI

Boshlanishi 1-sahifada.

Chunki bu siyosiy sana o'ziga xos sarhisob bo'libgina qolmay, istiqboldagi rejalarimizni hamda xalqimizning kayfiyatini ham belgilovchi omildir, – dedi Kinematografiya agentligi direktori, professor Shuhrat Rizayev. – Bizning kinochilar har bir sharaflil ayyom arafasida munosib tuhfa hozirlashga odatlangan. Chunonchi, bu yil Xotira va qadrlash kuni arafasida Alisher Navoiy nomidagi milliy kino-saroyda Ikkinchi jahon urushida vatandoshlarimiz ko'rsatgan jasorat va matonat namunalari aks etgan qator filmlar namoyishiga qurilgan kinohaftalik muvaffaqiyatli o'tkazildi. Muvaffaqiyatli deb ta'kidlaganimning sababi shuki, bu filmlar oynayi jahon orqali, Youtube platformasida qayta-qayta namoyish etilganiga qaramasdan, kinozallarimiz tomoshabinlar bilan tirband bo'ldi. Demak, xalqimiz oilasi bilan keng va zamonaviy kino saroylarda madaniy hordiq chiqarishni istayapti. Ana shu ehtiyojni hisobga olib, bu yilgi Istiqlol tantanalar arafasida ham milliy vatanparvarlik filmlari oyligini o'tkazish rejamiz bor.

Yig'ilishda adabiyot, madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkorlar oldida xalqimizni birdamlikka chorlovchi, yurtsevarlik ruhini ko'taruvchi yuksak asarlar yaratish, bosh bayramimizni yuqori saviyada o'tkazish vazifasi kun tartibida turgani alohida ta'kidlandi.

Ijodiy guruhga tez sur'atda bayram konsepsiyasini tayyorlash, xorijiy tantanalar o'tkazish tajribalarini o'zlashtirish, hududlardagi teatr va san'at vakillari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, Markaziy Osiyo xalqlari birdamligini badiiy chiqishlarda aks ettirish, sahna bezaklarini jahon andozalari asosida takomillashtirish hamda ta'sirchan, badiiy barkamol kuy-qo'shiqlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rish topshirildi.

Bu bayram haqiqatan umumxalq sayli sifatida mamlakatimizning har bir fuqarosi orziqib ishtirok etadigan va yuraklarda o'chmas iz qoldiradigan g'urur va iftixor, ishonch va shukrona ayyomiga aylanishi kerak.

O'z muxbirimiz.



17-MAY - O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI HALIMA XUDOYBERDIYEVA TUG‘ILGAN KUN

Shoirni sevdirdi, she’rni sevdirdi

Har bir shoirning o‘ziga xos she’r o‘qish uslubi bor. Ammo hamma shoirning uslubi ham ommalashavermaydi. Aksariyatniki o‘zi bilan qolib ketadi. O‘zbekiston xalq shoiri, sevimli ustozimiz Halima Xudoyberdiyevaning she’r o‘qishi ommalashdi. O‘tgan asrning yetmish, saksoninchi yillarida adabiyot dunyosiga qadam qo‘ygan shoir borki, deyarli hammasi o‘z she’rlarini Halima opamga taqlid qilib o‘qirdi. Hatto yozish uslubiga ham taqlid juda kuchli bo‘lgan. Shaxsan o‘zimning respublika matbuotida e‘lon qilingan dastlabki turkumlarimda ustozga o‘xshashga intilish aniq seziladi. Ayniqsa, “Suluvarlarim qaytmoqda”, “Ketmoningiz bir kungina menga bering, otajon” kabi she’rlarimga yillar o‘tib qarasam, satrlaridan Halima opamning nafaslari kelganday bo‘ldi va shuning uchun bu she’rlarni “Saylanma”ga kiritmadim.

Hatto Oydin opam “Sharq yulduzi” jurnalining adabiyot bo‘limida ishlayotganlarida oldilariga bir turkum she’rlar bilan borganimda:

– Halimaxonni hammamiz yaxshi ko‘ramiz, she’rlari hammaga sevimli. Ijodning boshlanishida kimgadir taqlid qilish ham adabiyotda bor narsa. Lekin ijodkor taqlid bilan uzoqqa bora olmaydi. Mana, sizning ham o‘ttiztacha she’ringizni ko‘rib chiqdim. Halimaxonga taqlid yaqqol seziladi. Bu narsadan voz kechishingiz kerak, – deganlar. Xijolatdan yerga kirib ketguday bo‘lganman. Shu-shu, yozganlarimni qayta-qayta o‘qirdim ustozning she’rlariga o‘xshab qolmayaptimi deb. Ammo opaga taqliddan qochdim, deganim ularning she’rlariga bo‘lgan muhabbatim so‘ndi, degani emas. Men bir umr Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining oshiq-laridan biri bo‘lganman, hozir ham shunday. Talabaligimizda shoiraning:

*“Begim, sizni tabiat raso qilib yaratgan,
Kimlamidir o‘ychan-u*

Sizni kulib yaratgan...”

“Sen baribir muqaddassan,

muqaddas ayol...”

kabi she’rlarini o‘rtoqlarimiz bilan jo‘r bo‘lib baravar aytib yurardik.

Qaysidir satirmini birovlarining she’rlarida ko‘rib qolib:

– Tavba, bu she’rimni ijtimoiy tarmoqqa qo‘yganimga hali ko‘p bo‘lmadi-ku. “O‘zim o‘z orzumning qahramoniman”, “Yomg‘ir, sen samoning yerga yozgan ishqiy xatisan”, degan satrlar meniki-ku, deb javranib qolsam, turmush o‘rtog‘im Miraziz aka: – Sen bunga xursand bo‘l. Chunki yaxshi she’rlar bolalaydi, – deydlar.

Demoqchimanki, Halima opamning she’rlari ham shunday “bolalaydigan” she’rlardan. Men vazifam taqozosiga ko‘ra xizmat safarlarida ko‘p bo‘laman. Qaysi bir yaxshi shoirning she’rlari tor doiralarda sevib o‘qiladi. Bu qusur emas, albatta. Bu she’rlar ma‘lum tayyorgarlikka ega bo‘lgan doiralarga tushunarli bo‘ladi. Halima opamning ijodi ham xuddi she’r o‘qishi kabi ommalashgan. Ularning “Dorilomon kunlar keldi – shafaqlari ol”, “O‘stir Xudo degan shu mamlakatni”, “Bolajon, sen otam bo‘lg‘in” kabi qator she’rlarini turli kasb egalari bilan bo‘lgan uchrashuvlarda yod o‘qishadi. Demak, shoirimiz xalqqa o‘z ijodi timsolida she’rni sevdirdi. O‘zi qiyofasida esa shoirni sevdirdi. Juda ko‘p marta eshitganman: “Shu shoirani yaxshi ko‘raman!”, “Halima opaning she’r o‘qishiga besh ketaman. Bo‘g‘in-bo‘g‘inigacha eshituvchining miyasiga mixlab, joylab qo‘yadi”, degan iqrirlarni. Shuning uchun bo‘lsa kerak, qay bir sabablarga ko‘ra shoir eldan uzoqlashtirilgan davrlarda ham unutilmadi. Halima Xudoyberdiyeva ijodining muxlislari uning otashnafas she’rlarini izladilar, so‘rab-surishtirdilar, o‘qidilar.

Andijonlik bir singlimiz shoiraga tegishli shunday voqeani gapirib bergan edi:

– Bahor, lolaqizg‘aldoqlar ochilgan payt... Kengliklarga olib chiqamiz, yayratamiz, deb Halima opani Andijonga olib ketganmiz. Uchrashuvlar o‘tkazishni rejalashtirganmiz. Ammo aksariyat joylarning rahbarlari chaynalishgan. Biz ham vaziyatni bilganimiz uchun ortiqcha oyoq tiramaganmiz. Pedagogika kollejida direktorlik qilayotgan Andijonning mashhur ayollaridan biri Mahbuba opa G‘ulomova o‘zining o‘quv maskanida juda chiroyli uchrashuv uyushtirib bergan. Uchrashuv juda zo‘r o‘tgan. Shu yaqin atrofdaqi mahallalardan ham aholi chiqqan. Uch soat davom etgan

uchrashuvdan so‘ng ham odamlar shoirani qo‘yib yuborgisi kelmagan. Niyat odamlarning, yoshlarning ko‘nglida hayotga, xalqqa muhabbat uyg‘otish bo‘lgani uchun hech kim hech narsa demagan...

Ishonamanki, bunday “o‘zbilamonlik” bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar boshqa viloyatlarda ham bo‘lgan. Aslan xalqqa ichidan suyumli bo‘lgani uchun orqalaridan ham gap-so‘z chuvalmagan. Buyruqning kuchidan muhabbatning qudrati ustun kelgan lahzalar, deb baholash mumkin bunday unutilmas onlarni.

Ha, xizmatlari e’tirof etilib, ijodkorga “Xalq shoiri” unvoni berilishi mumkin. Lekin ularning barchasi ham tom ma’noda xalqning sevimli shoiri bo‘laverishmaydi. Halima opam ana shu baxtga erishgan shoirlardan edi.

Halima Xudoyberdiyeva tabiatan xalqqa yaqin bo‘lgan. Shuning uchun turli davrlarda millatimiz qalbidan kechirgan og‘riqlarni opa ham yurakdan o‘tkazdi. “O‘sh-O‘zgan faryodi”, “Sibirlarda o‘lgan bolalar tirik”, “Mohlaroyim tug‘ilajak”, “Ufq’ni o‘qib” kabi she’rlari fikrimizni dalillaydi. Faqat ijoddagina emas, hayotda ham hamisha bir ko‘zi elda bo‘lgan. Jurnalist – ustozning qadrdonlaridan biri, rahmatli Dilbar Mahmudova bir voqeani gapirib bergandilar:

– Gazetada ishlab yurgan paytlarimda farg‘onalik Kumush Salohiddinova degan ayoldan xat keldi. Bu ayol ishlayotgan bog‘chada yaroqsiz holga kelib qolgan eski bino “gavda”sini ko‘tara olmay qulay boshlaydi. Bog‘cha opa bor kuchi bilan harakat qilib bir necha bolakayni omon olib chiqadi, ammo o‘zini tom bosib, nogiron bo‘lib qoladi. Endi o‘zi qarovga, parvarish, muolajaga muhtojligini aytib yordam so‘ragan ayol haqida o‘sha paytda respublika ayollariga yetakchilik qilayotgan Halimaxonga aytdim. Shoir a hamma imkoniyatlarni ishga soldi. Kumushxonga kerakli yordam berildi. Uning fidoyiligiga munosib mukofotlar ham bo‘ldi.

Mening nazarimda, ijodda ham, hayotda ham barcha o‘lchovlarda olib qarasa, ustozga “ulkanlik” degan bir sifat to‘g‘ri keladiganday tuyuladi. She’rlarini o‘qisangiz iqrirlari ham, raddiyalari ham ulkan:

Qalbga eking,

Qadim turk chinorlari tiklansin,

Qon-qardoshning chin do‘st-u

chin yorlari tiklansin,

Har yurakda bir

Turon minorlari tiklansin,

Ulug‘ mamlakatni ko‘taring.

...Shukur, bugun ozod sen,

ammo tarqoq sen, yot sen,

Tarqoqmi sen, inonki,

azal-abad barbodsan.

Jo‘rovoz bo‘l‘olmasang,

yakka-yakka mung, dodsan,

Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb

yig‘larman...

Ulkanligini his qilyapsizmi? Shoiraning qalbi ham ana shunday tuyg‘ular sig‘imiga mos ulkan edi. Men biror marta Halima opamning kimnidir burchakka tortib, visir-visir gap qilganini ko‘rgan emasman. Ular “Guliston” jurnali, bir muddat “Sanam” jurnalida ishlaganlar. Biz sakkizinchi qavatda edik. Nimalardandir ta‘bim xira bo‘lib qolsa, yugurib tushardim-da, ayolligimga borib, vijirlay boshlasam:

– Keling, qo‘ying shu gaplarni, enasini emsin. She’rdan oling, – der edilar. Yangi she’r yozsam ham darrov tushib o‘qib berardim. Biror satri yoqib qolsa, qayta-qayta o‘qitardilar. O‘zlari o‘qirdilar. Ulkan ruhdagi she’rlar zalvoridan mayda tuyg‘ular maydalanib ketardi...

“Dargohi keng” degan ibora bor-ku, ustozga nisbatan shu iborani ham qo‘llagim keladi. Birga ishlayotgan paytlarimizda janjalkash bir ayolning uzun yo‘lakdan baland ovozi eshitilib qoldi. Gap-so‘zlari ko‘p joyda o‘tadigan ayol edi. Bu safargi to‘polonining sababchisi men ekanimni bilganim uchun eshikni shartta ichkaridan bekitib oldim. Hikoyalariida bir tola yorug‘lik bo‘lmagani uchun qaytargandim. Telefonda “Qanaqa yorug‘lik, qanaqa qop-qora...”, deya o‘zimga ham rosa baqirgandi. O‘sha ayol bosh muharrirning xonasiga kirib, aytadiganini aytib chiqib ketmaguncha xona eshigini ochmadim. Yana ancha vaqt o‘tkazib, Halima opaning oldilariga kirdim. Yaxshigina gap eshitsam kerak, deb o‘ylagandim. “Sizning orqangizdan tinchligimiz buziladigan bo‘lsa, ishlash, ishlamasligingizni o‘ylab ko‘ramiz” tarzidagi gapni ham kutgandim. Chunki ayollar jurnali... hech bir ayolni norozi qilmas-



lik kerak, degan printsip bor.

Biroz o‘tirdik, indamay o‘tiraverganimdan so‘ng opa:

– Gapingiz bormidi? – dedi.

– Haligi ayol... – dedim-u, nima deyishimni bilmay tursam:

– Siz o‘zi qayoqda edingiz? – dedilar.

– Meni ko‘rsa battar alangalanib ketmasin, deb ichkaridan bekitib o‘targandim, – dedim sekingina.

– Yaxshi qilibsiz, yana kelsa, yana eshingizni bekitib o‘tiravering, – dedilar kulib. Yelkamdand tog‘ ag‘darilgandek bo‘ldi. U paytlari Halima opam meni unchalik yaxshi bilmasdi. Lekin shundayam shu gapni aytganlar, hech esimdan chiqmaydi. “Saodat” jurnalida Halima Xudoyberdiyeva bilan birga ishlagan jurnalist, shoirning yodlarida bundan ham yorqinroq xotiralar borligi aniq. Bittasi “Halima opa bizga, qalamimizga katta erk berdi, o‘z kuchimizga ishonch uyg‘otdi”, deb yozsa, boshqasi “Uyli-joyli, oilali bo‘lishimda opaning katta hissasi bo‘r”, deb yozadi. Kitobiga so‘zboshi yozib, adabiyot maydoniga yo‘llaganlari qaysi, o‘zi bilan davralarda olib yurib elga tanitganlari qaysi...

Ha, bizning ustozlarimiz shunday benazir insonlar bo‘lishgan. Shuning uchun ular chin dunyoga ketganlarida “Oldimizda tog‘day turishar edi, oldimiz bo‘shab qoldi. Hozirdan shamollarni his qilyapmiz”, deb bo‘zladik. “Yashashsa bo‘lar edi, hayotdan haqlari ko‘p edi”, deb nola qildik. “Biz ular kabi izimizda kelayotganlarga tayanch bo‘la olarmikanmiz...” deya bir-birimizga qarandik. Lloho, bo‘laylik. Ijod-u hayotda ustozlardan olganlarimizni izimizdan kelayotganlarga berishga yaraylik.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi

DEVORNING YORIG‘IDAN SIZIB CHIQQAN QIZG‘ALDOQ



Iroda UMAROVA – 1987-yil 3-martda Jizzax viloyati Forish tumani, Garasha qishlog‘ida tug‘ilgan. Hozirda Toshkent viloyatida istiqomat qiladi.

2006-2010-yillarda Nizomiy nomidagi TDP Uda tahsil olgan.

2009-2021-yillarda “Bekajon” gazetasida mutaxassis, 2022-2023-yillar “Akademnashr” nashriyotida muharrir bo‘lib ishlagan.

HAYKALTAROSHGA

U dag‘al toshlarni yechib oladi nafis badanlardan, gulday boshlardan, harir liboslarning ustidan yechar, changlarni sidirar sizg‘in yoshlardan.

Uning qo‘llari... o, uning qo‘llari jarroh qo‘llariday sezgir va tingchi. Toshlardan odamni olar ajratib, olar tabassumni, g‘amni, sevinchni.

Ehtimol, bu haykal rostakam odam, “Yoritlosh”ga singib ketgandir badar? Yo‘qsa, nima uchun og‘ir juda ham iztiroblar qadar, armonlar qadar?

Yo‘qsa, nima uchun bunda haqiqiy yurak bor – tosh qotgan, toshdan ku-bu bosh?

Tosh qotgan diydalar, toshdir bag‘ir ham, toshdir ko‘zlaridan sizib chiqqan yosh...

...Odam yasar odam, qadoq barmoqlar sovuq chehralarga purkaydi tuyg‘u. Zotan, odamdan odam yasab bo‘lmisligini anglab yetgan u...

BAHOR KELDI, QARANG, AZIZIM,

Bahor keldi naqadar ma’sum. Qushlar taqib barmoqlariga Daraxtlar qilar tabassum. Kaftlarimga artinar gullar, Kaftlarimda baxt ifori bor. Talpinaman sizga, azizim, Har odamning o‘z bahori bor.

NIHOLLAR EKASIZ HAR ERTABAHOR,

Chechaklar, ko‘katlar... bari badastir. Javdirab ko‘z ochgan nishonalarni Kuzatmoq va suymoq kunlik havasdir. Eslab qo‘ying shunday paytlar gohida, Vijdonni tozalab nafs qumidan: Xabar olmaysizmi axir qachondir Kimningdir ko‘ngliga ekkam umiddan?

GARASHAM, CHIROYLIGIM,

Tashlab ketgan boyligim...

Ifori gurkirab turgan yo‘ng‘ichqa Jo‘yagida epkin chayqagan oyni – Osmonda chayqalar oltin o‘riklar... Siyraklashib qolgan, tortgan ingichka, Bir o‘rim kokilin Garashasoyning Sohila qistirgan yakkacho‘p ko‘priklar... Sog‘indim sizni!

Sog‘indim, Uzo-o-oq uxlaganidan A’zoyi badanini maysa qoplagan devlar – Qirlarning yelkalaridan pastlikka tomon Shamol bilan zu-u-uv-vlashganimni. Sog‘indim, Pushti ko‘ylakda atirgul yaproq‘iday Qalqib yurganimda bog‘larda,

Kapalaklar meni quvlashganini... Gullari bo‘ymdan baland bahorlar... Yoz bo‘yi mevadan bezorlar... Qor qo‘yniga o‘yilgan g‘orlar... Sog‘indim!

Otajon qishlog‘im, onam qishlog‘im, Sening sinig‘ingman, neki ko‘rsam Shunday aksing bor nigohlarim xotirasida. Go‘yo yashayapman bir vaqtda seni va o‘zimni. Iloho, hamisha butun bo‘l! Qiyomat qadar bersin to‘zimni.

Do‘llaring, sellaring, yo‘llaring, gullaring – Betakror, o‘zingga ham betakror... Menimcha, uzilganman qon tomiring yaqinidan – Qonab to‘xtamayotgan yoding bor...

Garasham, chiroyligim... Qachondir bo‘ladi so‘nggi tashrifim, Ehtimol bag‘ringga qaytmaydi jismim. Lekin ishonaman, hechgursa sening Yodingda abadiy yashaydi ismim. Garasham, chiroyligim...

MAKTUBINGNI OLDIM, DILOZOR,

Boshdan oyoq muhabbat, uzr. Ko‘nglim... ko‘nglim qonadi takror, Yirtib o‘tga otdim: “Jin urgur!”

Bir lahzada hazm qildi olov U olovli xitoblariningi. Tatimadi lekin qasosim, Ko‘paytirib azoblarimni.

Oh, azizim... Qaydan bilarding, Asrab yursam ginamdan tonib? Nigohlaring, so‘zing, iforing, Barmoqlaring tugadi yonib...

Burda-burda kulga termilgan Ko‘zlarimda o‘zga qayg‘u bor. Oh, azizim, Meni kechirgin, Yonmaydigan maktublar yubor.

“KETING!
SIZNI YOMON KO‘RAMAN”, –
G‘azablanar yuzi, qo‘llari. Ovoziga cho‘chiydi epkin,

Yo‘lga sochib parda gullarin... “Ketdi”, – Boqar izidan loqayd, Aql-u ko‘ngil aro harb bilan. Ko‘zlarini ohista yumdi Va eshikni yopdi zarb bilan.

Oqshom so‘hggi tugmasin yechdi, Tiniq-tiniq ko‘rinar tuman. Yurakdan tosh ko‘chdi (kechikdi): “Ketmang... Sizni yaxshi ko‘raman...”

ONAM

Ko‘zlari yo‘limda o‘tdi va oxir Shu yo‘ldan ko‘zlarin yumib o‘tdi u... Qo‘l cho‘zsam yetardi, Oyoq cho‘zmam Sabab bo‘lmaguncha hajrbaxsh qayg‘u. Bolaligi bordir onasi borming... Bildim hayot pandga to‘laligini. O‘sha kun kuzatdim onam ortidan O‘ttiz yoshdan oshgan bolaligimni. Ko‘zlarin yo‘limda qoldirganimning Qoldirmadim biron ma‘rakalarin! Baqoga hech nesiz ketish... yolg‘ondir, Qani uyning fayz-u barakalari? Bormasam qo‘ymaydi endi bu ko‘ngil, Borsam yozlarda ham kutar o‘sha qish. Bu uy endi onam yodiga manzil, Bu – onam ko‘ylagin kiyvolgan bolish... Bu ko‘rpa – onamning paxta choponi... Onam ro‘molidan chimmat darchada... Nimchasi kuydirmay tutar qumg‘onni... Tikkan dasturxonni mahtal tanchada... Oftoba betobday, o‘choq xirata b. Silab-suvashlarin eslayotgandir Yelkasin chokiga qoqigul qadab Burchakda mung‘ayib o‘tirgan tandir. Loysuvoq devorlar, aziz devorlar Kiftiga suykilib, olgan islarin. Huv toshlarga toshday cho‘kib, Sog‘ingan olislarga tushgan toshlar – qizlarin. Endi u sog‘inchlar bizga omonat, Bo‘lishsak ham vazni vaznimdan ko‘proq. Bir burda onam-a, polvon onam-a, Qadriga yetdikmi yetganda tuproq? Qadriga yetdimmi tirikligida, Ko‘nglining toshiga o‘zimni bosdim. Maktublar, qutlovlar yozmay yurib, so‘ng

Qabrining toshiga yodnoma yozdim... Xizmatida ko‘proq bo‘lay deb bajo, Oslgan dorlarim ekan balandda. O‘limni hamma ham kutadi, ammo U kelarkan doim kutilmaganda. Sening changaliga tushgan xasdayman, Onlarim duosiz, g‘ash-xavotirda. Yorug‘ tushlarimga solib asrayman Onamli kunlarim yig‘ib xotirda. Endi ko‘p boraman armon ko‘yida, Haliyami kutguvchi bir bahonam bor: Termilib o‘tgani – yo‘lning bo‘yida Tuproqni yopinib yotgan onam bor.

U GUNOH QILDI,

Men... kechirdim uni, O‘zim ham gunohkor bir banda dedim. Kim bo‘libman, bundan battarlarini Xudoyim kechirib turganda dedim.

Va bir kuni qaytar dunyo ro‘y berdi, Lek yakunni aynan ko‘chirmadi u. Azoblardan ko‘proq hayrat bo‘y berdi: Xato qildim, meni kechirmadi u.

DEVORNING YORIG‘IDAN SIZIB CHIQQAN QIZG‘ALDOQ,

Odamzod o‘lchovlarin buzib chiqqan xasday... Bu devorga kimlar bosh urib, yorib ketmagan? Bu devorning ortini kimlar ko‘rib ketmagan?

U boshlar hamon omon, unutilgan chorig‘i, Paydo bo‘lgani qolmish devorlarning yorig‘i. U boshlar yongingandan ensa qilib o‘tadi, Ehtimol seni ezib, yulib-yulib o‘tadi.

Sening umring bir mavsum, odamzod ne mavsumlik, Mavsum almashgan sayin yitar ekan ma’sumlik. U olis mavsumlarning sog‘inchisan, qizg‘aldoq, Shabnam-shabnam yoshlarga yopinchiqsan, qizg‘aldoq.

Bu xarsang poydevorlar bir “Yoritlosh” ertagi, Sen ehtimol kimningdir ko‘ylagining etagi? Haqiqatlar yashirin, xil-xil ertak qoladi, Bizda(n) qolsa oxiri senday chechak qoladi.

Devorning yarasidan sizib chiqqan qizg‘aldoq, Kechmishlari dunyoni kezib chiqqan qizg‘aldoq...

YORUG‘ XOTIRA

Said Shermuhamedov 1930-yil 12-mayda Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida tug‘ilgan. 1948–1953-yillarda Samarqand davlat universitetida ta‘lim olgan. O‘qishni tugatib, ushbu universitet aspiranturasida tahsilni davom ettirgan.

Falsafa fanining dolzarb masalalari bo‘yicha 1960-yilda nomzodlik, 1974-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1994-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining a‘zosi etib saylangan.

Said Shermuhamedov o‘zining 60 yildan ortiq mehnat faoliyati davomida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining falsafa va huquq instituti ilmiy xodimi, ilmiy kotibi, direktor o‘rinbosari, respublika maorif vaziri, Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, O‘zbekiston Milliy universitetining kafedra mudiri kabi mas‘uliyatli lavozimlarda samarali xizmat qilgan va yurtimizda falsafa faniga doir masalalarni ilmiy tadqiq etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishida faollik ko‘rsatgan. Said Shermuhamedovning rahbarligida o‘nlab fan doktorlari va fan nomzodlari tayyorlangan.



SHIYPON SUHBATLARI

sog‘inchi

Yozuvchi Anton Chexovga doir xotiralarda aytilishicha, kasbi vrach bo‘lgan iqtidorli bu ijodkor muxlislar, adabiyotshunos olimlarning: “Siz hikoyalaringizdagi ajabtovur personajlarni qayerdan topasiz?” degan savoliga hamisha: “Men ularni uyimga chaqirgan tanish-notanish mehmonlarim, bemor mijozlarim, ko‘chalarda sanqib yuradigan bekorchi so‘taklar, ichkilik desa, o‘zini tomdan tashlaydigan mazaxo‘raklar, qimorbozlar, yaqinlaridan qarz olib, qochib yuradigan valakislanglar, davralarda qo‘r tashlab o‘tiradigan satang xonimlar orasidan qidiraman va, albatta, topaman”, der ekan. Ha, bu dunyoda kim nimani qidirs, shuni topadi, kimni izlasa, unga ertami-kechmi, albatta, duch keladi.

Shahar adog‘ida joylashgan bu shifo-xonada davolanayotgan taniqli yozuvchi, rassom, san‘atkor, mashhur olim, qahramon yurtdoshlarimiz bilan ko‘p bor suhbatda bo‘lganman. Hovlidagi shinam shiyponda bo‘ladigan samimiy suhbatlar shaharda bir necha kun tayyorgarlik ko‘rib o‘tkaziladigan ijodiy tadbirlardan aslo qolishmaydi.

Yuz yoshlik umri arafasida olamdan o‘tgan Rahmonqul Qurbonovdan eshitganlarimning o‘zi katta bir kitob bo‘ladi. Bugun davolanishga borib, shu shiypon yonidan o‘tayotganimda uning o‘ymali ustunlari hozirgacha ustoz Said Ahmadning latifalari bois ko‘tarilgan qahqahadan titrab turganday tuyuladi. Erkin Vohidovdan eshitgan va yozib olganlarimning ko‘pini hali yuzaga chiqarganim yo‘q. O‘zi davolanayotgan, ammo uni ko‘rgani keladigan do‘stlarini o‘ylab, xonaga hamisha to‘y dasturxonini tuzab qo‘yadigan Murtazo Sultonovning hangomalari ham vaqtis- soati bilan qog‘ozga tushishi kerak...

Taniqli faylasuf olim Said Shermuhamedov bilan birinchi marta shu shifoxonada uchrashganman. Qat‘iyatli, fikri tiniq, mushohadalari bosiq- vazmin olim. Falsafa yo‘nalishida o‘sha yillar talabidan kelib chiqib, ko‘p olimlarga ustozlik qilgan. Ular orasida sadoqatliklari va bu masala- lada sal mundayoqlari ham bor. Domla bilan muolaja xonalarida uchrashib qolsak, yonlaridan odob bilan, salom berib o‘tamiz, navbat beramiz. Bir kuni Said aka yo‘lakda bu yerga tashqaridan taklif qilingan taniqli shifokorni kutib o‘tirgan ekanlar, men ham shu maqsadda edim, salomlashib, yonlariga cho‘kdim. Biroz gaplashganimizdan keyin u kishi: “Menga qara, yigitcha, sen televizorda olamda nima gapligini gapiradigan jurnalistmisan?” deb so‘rab qoldi. Bu gap qulog‘imga yoqimli eshitildi, “Ha” dedim. “O‘zimizdan ham sharhlovchilar chiqishi kerak- da, yaxshi, diksiyang durust”, dedi va darhol savolga tutdi: “Qayerliksan?...”

Shu suhbat bahona muolajalar navbatida gaplashib turadigan bo‘ldik. Oradan yillar o‘tdi. Said aka ulug‘ yoshga yetib, bu dunyoning ne-ne mansablari tashvishidan qutulib, shifoxonaning nafaqadagi faol mijozlaridan biriga aylandi, shundan keyin suhbatlarimiz shifoxona yo‘lak- laridan hovlidagi bugun ham gavjum shiyponga ko‘chdi.

Bir shiyponiy suhbatimizda Said aka mening gazetada chiqqan maqolamga ko‘z tashlagan ekan, “Siz Chingiz Aytmatov bilan tanish ekansiz- da?” deb so‘rab qoldi. “Siz...” deganlaridan o‘ng‘aysizlanmadim. Chunki o‘shanda men bugungi oqsoqol Said Shermuhamedov bir vaqtlar yoshlik shiddati va shijoati bilan ishlagan, katta siyosat yo‘nalishlarini har jihatdan belgilab beradigan markazqo‘mga ishga o‘tgandim. Lavozim har qanday kamtarin kishiga ham ma‘lum dadillik baxsh etadi. Savolga dadil javob berdim, Chingiz og‘a bilan qanday tanishganimni, qirg‘iz tilida ham gaplasha

olishimni, adib publitsistikasi mavzusida ilmiy ish yozmoqchiligimni aytdim. Domlaning quyidagi so‘zlari hali-hanuz yodimdan chiqmaydi: “Bu yozuvchi uzoqqa boradi. Falsafasi chuqur, O‘zbekistonga mehri boshqacha. Dadilligiga qoyilman. Ilmiy ishni tezlashtiring, uka...”

Shundan keyin har yili bir marta, ba‘zan ikki marta shu qadrdon shiyponda bo‘ladigan uchrashuvlarimizda bahs mavzusi ancha jiddiylashdi. Chingiz og‘a haqida ko‘pgaplashdik. Faylasuf olim Omonilla Fayzullayevning Chingiz Aytmatov bilan samolyotdagi suhbatini adabiyot gazetasida e‘lon qilgan edik, Said aka o‘qigan ekanlar, bu suhbatni shiyponda o‘zimizcha davom ettirdik. Bir gal Said aka: “Ukajon, ilmiy ish nima bo‘ldi?” deb so‘radilar. Men beto‘xtov: “Yo‘zayman” dedim. Boshqa bir gal: “Chingiz Aytmatov publitsistikasi yaxshi mavzu, ammo uning falsafiy qarashlarini tanlaganingizda xo‘b ish bo‘lardi-da”, deb qoldilar. Shu taklif bahona suhbatlarimiz yanada jiddiylashdi. Men domlaga avvalgi e‘tirofini eslatib, adibning xalqimizga alohida hurmati haqida batafsil so‘zlab berdim. Chindan ham, Chingiz Aytmatov O‘zbekiston haqida, xalqimizning yuksak aql-zakovati, tarixi, buyuk ajdodlardan qolgan boy ma‘naviy-ilmiy merosi va kelajagi to‘g‘risida ko‘plab maqolalar yozdi, qadim o‘zbek madaniyatining O‘rta Osiyoga ko‘rsatgan ta‘sirini ko‘hna Vizantiyaning qadim Rusga ko‘rsatgan ta‘sirini bilan qiyosladi.

Boshqa bir misol. 1990-yili O‘sh va O‘zganda qonli qirg‘in sodir bo‘lganida Chingiz Aytmatov ayrim adiblar singari o‘zini chetga olmadi. Mojarodan jaf o chekkan har ikki tomonning dardiga darddosh bo‘lib, ular yonida turdi. Ikki turkiy qavmni to‘qnashtirish aslida kimlarga kerak bo‘lib qolganini kuyunib, ichki bir iztirob bilan tushuntirdi, radio va televideniya- da, chiqishlar qildi, matbuot sahifalarida maqolalar yozdi. “Biz tarixni qanchalar o‘zimizga ma‘qul tomonga burishga urinmaylik, u hech qachon asladagidan boshqacha bo‘lib qolmaydi, – deb yozgan edi u “Известия” gazetasida e‘lon qilingan “Jahannam uzra qarg‘alar faryodi” maqolasida. – Milliy nizolar shunisi bilan qo‘rqinchlik, har bir taraf odamlar boshdan kechirayotgan azob-uqubatlarni faqat milliy belgiga ko‘ra, o‘z yo‘qotishlari va da‘volariga ko‘ra qabul qiladi. Oqibatda, ko‘r-ko‘rona o‘ch olish istagi jo‘sh uradi, bu benihoiya dahshatli bir yuqumli kasallik – nafrat vabosini urchitadi. Nafrat vabo kabi urchigandan so‘ng, xuddi tog‘dan tushgan sel oqimi yanglig‘, bir zumda asrlar davomida shakllangan aql-idrokni bosib-yunchib, surib ketadi. Xalqning farajlari bu. Shunda qasos olishga intilgan tojiyasi o‘rtasiga tushgan har kim ular uchun ham, bular uchun ham dushmanga aylanadi. Bu endi yarashtiruvchining fojiasi”.

Said domla jo‘shib ketdilar, qog‘dagi hassani yerga qattiq nuqib, “Ahmadjon, mana turkiy dunyo o‘g‘lonining falsafasi, mana, gap qayerda, e, otasiga ming rahmat, zo‘r gaplarni aytgan ekan...” dedilar.

Bu suhbat 2015-yilning kuzida – sihatgoh hovlisidagi daraxtlar sarg‘aygan barglarini birin-ketin to‘ka boshlagan, olmaxonlar qishga yegulik g‘amlashni boshlab yuborgan paytda bo‘lib o‘tgandi. Afsus, bu mening domla bilan so‘nggi suhbatim ekan. Keyingi yilning bahori o‘rtalarida ustoz olamdan o‘tdilar. Bu sovuq xabarni Said otani yaqindan bilgan uch-to‘rt kishi o‘sha qadrdon shiyponda eshitdik va qo‘limizni duoga ochdik.

Oxiratlari obod bo‘lsin.

Ahmadjon MELIBOYEV

Boshlanishi 1-sahifada.

– Litseyimiz 1997-yilda faoliyat boshlagan, – deb bizni kirish zali bo‘ylab yetaklab ketdi professor. – Dastlab faqat ikkita guruh ochilib, bor-yo‘g‘i 50 ta o‘quvchi tahsil olgan. Ikki yildan so‘ng akademik litseyga o‘zgartirilib, uch yillik tizimga o‘tildi. Shundan buyon har yili 200 nafar o‘quvchi imtihon asosida qabul qilinadi. Shu kungacha o‘n mingdan ziyod bitiruvchini kuzatdik. Ularning oliy ta‘lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi deyarli yuz foiz.

Kirish zali xiyla katta bo‘lib, devorga tarixiy suratlar va erishilgan yutuqlar yorliqlari muzeydagi singari tadriijiy ko‘rinishda ilib qo‘yilgan. Domla bir boshdan tanishtira ketdi:

– O‘zbekiston uchun bugun barcha xalqaro musobaqalarga, jumladan, fan olimpiadalariga ham eshiklar rosmuna ochildi. Keling, yaqin tariximizga bir qur nazar tashlab olaylik... Bilasiz, Mendeleyev olimpiadasi faqat kimyogarlar uchun. Biologiyadan ham alohida jahon olimpiadasi bor. 21-Xalqaro olimpiada Janubiy Koreyada o‘tkazilishi kerak edi. Tayyorgarlikni astoydil boshlab yuborgan bir paytimizda, taqdimni qarangki, Amerikaning Sietl shahriga amaliyotga boradigan bo‘p qoldim. Reys Janubiy Koreya orqali ekan. Shu oraliq bekatta bizni O‘zbekistonning Koreyadagi elchisi kutib oldi. Fursatdan foydalanib qoldim. “Bu yilgi musobaqa Pusan- da o‘tkazilar ekan, hali bunday bellashuvda bizdan birorta vakil qatnashmagan. Shu ezgu an‘anani biz boshlab bersak, olimpiadaga qatnashishimiz uchun Koreya hukumatidan ruxsat olib bersangiz”, deb elchidan iltimos qildim. Qo‘shma Shtatlarda o‘n kun malaka oshirib, vatanga yana Koreya orqali qaytadigan bo‘ldik. Bu safar elchi bizni xushxabar bilan kutib oldi: ruxsat berilibdi! Olimpiada o‘tdigan vaqt iyul oyiga – ayni ta‘til kunlariga to‘g‘ri keldi. Mengayam yurakdan Xudo bergan ekan-da! Vazirlikdan ruxsat olmadim, chunki so‘raganim bilan rozilik berishi mahol edi. O‘zingizdan qolar gap yo‘q, 10-yillarda vazirlardan dard bor edi-yu, darmon yo‘q edi. Iqtisodiy masalani hal qilish imkoni berilmagandi. Shart yonimga bitta yordamchi o‘qituvchi va uch o‘quvchimni olib, ularga o‘zim kafil bo‘lib, yo tavakkal deb Koreyaga uchib ketdik. Bu safar ham elchimiz hozirlik ko‘rib qo‘yibdi: avtobus tayyor, oldida bayrog‘imiz hilpirab turibdi. Shunday qilib, musobaqa bo‘lib o‘tdigan Pusan shahriga yo‘l oldik. Biz uchun buyurtma qilingan mehmonxonaga joylashib, ertasiga tantanali ochilish marosimida qatnashdik. Saksonta davlat jamoalari bilan birga o‘quvchilarim bayrog‘imizni ko‘tarib maydonga chiqib kelishdi. O‘sha paytda ichimdan o‘tgan tuyg‘ularni ta‘riflab berolmayman. Ishonsangiz, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi.

Bir dam ko‘z oldida o‘sha hayajonli daqiqalar qayta jonlanganday, professor bir muddat devordagi suratga tikilib qoldi.

– Bayram tantanalari zo‘r o‘tishga o‘tdi-yu, keyingi ishlar meni xavotirga solib qo‘ydi. Bir mahal hakamlar guruhidan ikkita vakil kelib, ruxsatnoma so‘rab qolsa bo‘ladimi? Bilsak, musobaqada qatnashish uchun birinchi yili kuzatuvchi maqomida bo‘lish, keyin Olimpiada Qo‘mitasining ruxsati bilan qatnashish mumkin ekan. Muzokara boshlandi. Jamoamiz ishtirok etish-etmasligi muhokamaga qo‘yilganda hakamlarning 80 foizi qarshi ovoz berib, bizning harakat Olimpiada nizomini buzish deya baholandi. Qarasam, ish chappasiga ketyapti. Hali bolalarim o‘zi bexabar, ota-onalari umid bilan kuzatib qolishgan, qolaversa, o‘rtada vatan sha‘ni turibdi. G‘ujurim kelib, shart minbarga chiqdim! O‘zbekona nutq irod qildim. “Shunaaqa, shunaaqa... Shuncha yo‘l bosib keldik, bolalarning ruhi tushmadi!” dedim. Keladim ta‘sir qildi chog‘i, ikkinchi bor muhokamaga qo‘yilganda hakamlar hay‘atining 75 foizi bizni yoqlab ovoz berdi. Musobaqaning birinchi kuni nazariyadan sinov bo‘ldi. O‘quvchilarim deyarli eng yuqori – 50 dan 47 ball to‘plashdi. Ikkinchi kuni ham 100 dan 96-97 ball oldik. Lekin uchinchi kuni amaliy laboratoriyadan qo‘ldik – 400 dan bor-yo‘g‘i 36 ballgina yig‘ibmiz. U yerda, masalan, mikroskopga hasharot qo‘yiladi, siz mitti organizmning ichki organlarini batafsil tushuntirib berishingiz kerak. Ochig‘i, bolalar tugul, o‘zimiz uchun ham yangilik bo‘ldi. Biz o‘quvchilarga test yechish texnikasini o‘rgatibmiz-u, laboratoriyada amaliy ishlamabmiz. Shu joyda xatomizni angladim, ana shunda nima uchun birinchi yili kuzatuvchi bo‘lib borish kerakligini tushunib yetdim. Pirovard natija qoniqarli bo‘lmasa ham, keyingi olimpiadalar uchun poydevor qo‘yib keldik. Katta tajriba bilan qaytdik. Shu bahona O‘zbekiston biologiya fanidan Jahon Olimpiada



Qo‘mitasining teng huquqli a‘zosisga aylandi.

Professorning bir shogirdi ustozni “Olimp cho‘qqisiga O‘zbekiston bayrog‘ini o‘rnatgan birinchi inson”, deya oshig‘ich ta‘rif bergandi. Hozir shu gap xayolimdan o‘tib, ichimda “Aytishganicha bor ekan”, deb qo‘yaman.

– Shundan keyin kimyo fanidan ham dunyoda eng nufuzli xalqaro olimpiadaning payiga tushdim. Mazkur musobaqaga keyingi yili Turkiya mezbonlik qilar ekan. Bu safar o‘zboshimchalik qilmay, ta‘lim vazirining huzuriga kirib, maslahat soldim. “O‘tgan yili biologiya fanidan Jahon olimpiadasiga borib, bayrog‘imizni o‘rnatib keldim. Endi navbat kimyoga keldi. Bunda ham dastlab kuzatuvchi maqomida borishimiz kerak. Shu ishda menga ruxsat berib, amaliy yordam ko‘rsatsangiz”, dedim. Vazir taklifimni qo‘llab-quvvatladi, bajonidil ruxsat berishini aytdi, lekin borish-kelish xarajatlari uchun pul ajrata olmasligini, yillik rejaga kiritilmaganini afsus bilan ta‘kidladi. “Mayli, ruxsat olib bersangiz kifoya”, dedim. Yig‘itning sazasi o‘lguncha, shaytonning bo‘yni uzilsin! O‘sha yili o‘g‘limni (ingliz tilida ravon gapiradi) tarjimon sifatida yonimga olib, Turkiyaga uchdim. Ochilish marosimida O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘rib, qardoshlarimiz chapak chalib yuborishdi. Chunki mustaqil bo‘lganimizga yigirma yil to‘lgan esa-da, Markaziy Osiyodan faqat O‘zbekistongina qatorda yo‘q edi. Endi qarang, bularnig qonun-qoidasiga ko‘ra, musobaqaga yangi qo‘shiladigan davlat bir emas, ikki yil kuzatuvchi maqomida bo‘lishi talab qilinarkan. Hay mayli, sabr qilamiz, dedim. Keyingi yili ham Amerikaga kuzatuvchi bo‘lib bordik. Bellashuv shartlarining bajarilishini sinchiklab o‘rganib, ishning ancha hadisini oldik. Bu yoqda o‘quvchilarni toblab, “jangga” hozirlab turibmiz. Nihoyat, 2013-yili Moskvada bo‘lib o‘tdigan kimyo fanidan jahon olimpiadasiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdik. O‘zbekistondan to‘rt nafar ishtirokchi qatnashdi. Shularning ichida bizning o‘quvchimiz Bekzod Boltayev tariximizda ilk marta kimyo fanidan oltin medalga sazovor bo‘ldi! O‘shanda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi raisi buyuk britaniyalik Piter Vouters jamoamizni qutlarkan, “Birinchi urinishdayoq oltin medalga ega chiqish Olimpiada tarixida kuzatilmagani holat”, deya e‘tirof etgandi. Qirz besh yildan buyon qatnashib, bitta oltin ololmagan mamlakatlar ham bor ekan. Biz esa uddaladik!

Zalni bir qur aylanib chiqqach, professor bizni chog‘roq xonaga taklif qildi. Ish stolida turgan darsliklar orasidan oltinrang muqovali kitobni qo‘liga olib, bizga yuzlandi.

– Bu kitobda Olimpiadalarda qozonilgan zafarlarni qayd etganmiz, – deydi domla tabas- sum bilan. – Mana endi O‘zbekiston yoshlari har yili kimyo va biologiya fanlaridan xalqaro Olimpiadalarga qatnashib kelayotir, biron marta bo‘lsin uyga quruq qo‘l bilan qaytishgani yo‘q. G‘alvimni ko‘tarib qarasak, birgina bizning o‘quvchilar keyingi yillar mobaynida dunyoning turli davlatlarida bo‘lib o‘tgan fan olimpiadalarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, jami 87 ta medal: 13 ta oltin, 25 ta kumush, 49 ta bronzani qo‘lga kiritibdi!

Kitobni birma-bir varaqlar ekanman, xayolimdan “O‘sha oltin avlod hozir qayerda? Keyin ham ilm yo‘lidan borib, ishonchni oqladilarmi? Xalqqa qanday nafi tegyapti?” degan o‘ylar o‘tdi. Ba‘zan hayotda shunday bo‘ladiki, favqulodda talantli bolalar keyinchalik turmush tashvishlari ichida yo‘qolib ketadi. Professor xayolimni o‘qib turgandek, asta gap boshladi:

– Ot o‘rnini toy bosar deganday, g‘olib bo‘lgan sovrindor o‘quvchilarim bugun o‘zlari ustoz maqomiga yetib, maktablarda ta‘lim beryapti, o‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda

yurtimiz bayrog‘ini yuksakka ko‘taryapti. Boya aytib o‘tganim Bekzod Boltayev malakali xirurg bo‘lib yetishdi. O‘shanda uning iqtidoridan hayratga tushgan MGU (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti) rektori Viktor Antonovich Sadovnichiy “Shu o‘quvchingiz bizda qolsin, tamomi xarajatlar davlat hisobidan qoplanadi”, deb ko‘zi kuyganda “Bunday oltinbosh bolalar o‘zimizga ham kerak”, deb o‘quvchimni olib qolganman. Bekzod o‘n olti yoshidayoq “Shuhrat” medalini olgan, bugun uning o‘zi kimyo fanidan O‘zbekiston olimpiada jamoasiga murabbiylik qilyapti. Hozir may oyida Braziliyada bo‘lib o‘tdigan Xalqaro Mendeleyev olimpiadasiga tayyorgarlik avjida. Qozog‘istonning Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan 46-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida oltin medal olgan o‘quvchim Hamidulla To‘xtayev esa hozir fan nomzodi, shu kunlarda Saudiya Arabistonida organik kimyo bo‘yicha doktoranturada o‘qiyapti. Sarvar Shoyunusov Xalqaro Mendeleyev olimpiadasining kumush medal sohibi, “Mard o‘g‘lon” mukofotiga loyiq ko‘rilgan. Aspiranturani Xitoyda o‘qidi, neyroxirur- giya sohasida sanoqli mutaxassislardan. Epilepsiya (tutqanoq)ni davolashda murakkab operatsiyalar o‘tkazyapti. Jahongir Faxriyev ham Xalqaro Mendeleyev olimpiadasining bronza medali sohibi, yetuk jarroh. Jigarga naycha (stent) qo‘yishdek o‘ta nozik amaliyotni muvaffaqiyatli bajarmoqda.

...Professor bilan suhbatimiz rejadani tashqari uzoq davom etdi. Xayrlashuv oldidan tillatus kitobidan bizga sovg‘a qilarkan, shu bilan bog‘liq bir qiziq voqeani so‘zlab berdi:

– 2019-yil kimyo fanidan xalqaro olimpiada Fransiya- da bo‘lib o‘tgandi. Qo‘lingizdagi kitobning inglizcha nusxasidan kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi Jan-Per Sovajga sovg‘a qilgandim. Musobaqaning yopilish marosimida ko‘zi o‘ynab kelib qoldi: “Sizning o‘quv yurtingiz nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoda yagona! Natijalar hayratlanarli! Fransiya Olimpiadaga mezbonlik qila turib ham oltin ololmadi”, dedi u farangiy hayajon bilan. Shu gapni aytish uchun meni qidirib yurgan ekan. Nokamtarlik bo‘lsa ham aytay, shunday paytlarda terimga sig‘may ketaman. Mehnatlarim samarasini ko‘rib, cheksiz faxr tuyaman!

Ortiqboy Eshonqulovning xizmatlari munosib taqdirlanib, davlatimiz rahbari tomonidan “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni hamda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan mukofotlandi. Yillar o‘tgan sayin professorning g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shilib boryaptiki, aslo kamaygani yo‘q. Ustoz faqat o‘z maktabi emas, butun yurt yoshlarini o‘z o‘quvchisidek teng ko‘radi. Domla boshchiligidagi professor o‘qituvchilar, olimlar, fan arboblariidan iborat “Tashabbus” guruhi tuzilgan. Ushbu guruh respublika bo‘ylab uzoq-yaqin hududlardagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari- da uchrashuvlar o‘tkazadi. Ta‘lim ko‘rsatkichi past hududlarda tayanch-namuna maktablari tashkil etishda ko‘maklashadi. Ta‘limni rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarni oliy ta‘lim muassasalariga yo‘naltirish hamda saralab olingan iqtidorli o‘quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash maqsadida matematika, kimyo va biologiya fanlaridan tuman va shaharlar miqyosida muntazam olimpiadalar tashkil etadi. Ichki olimpiadalarda faxrli o‘rinlarni egallagan o‘quvchilar akademik litseylarga imtihonsiz qabul qilinadi.

Muxtasar aytganda, Ortiqboy Eshonqulov maqomati “Birinchi muallim”lardan!

Jamoliddin BADAL



AKS SADO

QUVONISH KERAKMI YO HADIKSIRASH?

YOZUV EMAS – KODIFIKATSIYA

Avvalo, nima deb o'yladim: hikoya yozildi, demak, uni yozgan bor. Bu “bor” kim? U odammi? Sun'iymi? Qalammi? Klaviaturami? Har qanday asar muallifni talab qiladi. Mazmuni bor fikr, ruhi bor obraz, vaqti va makoni bor voqelik faqat his etadigan, anglaydigan kimsalar tomonidan yaratiladi.



Kuzataman, “Jadid” anchadan buyon yasa-ma zakovatning imkoniyatlari to'g'risida maqolalar berib boryapti. Shulardan birida sun'iy intellekt hozircha vaqt va makonni anglash qobiliyatiga ega emasligi to'g'risida yozilgan edi. Unga kecha bilan ertaning o'rtasida farq yo'q. Bugungi haqiqat bilan

hech qachon bo'lmagan fantaziya bir xil uyg'unlikda ishlaydi. Shuning uchun “asari”dagi tuyg'ular taqliddir.

Voqelik emas – konstruksiyadir.

Men bunday jarayonni yomon demayman. Balki kerakdir. Ammo hikoyaga yozuv emas – montaj, qalb emas – kodifikatsiya, deya baho bergan bo'lardim.


Unda syujet bor, harakat bor, adabiy qoidalarga amal bor. Ammo adabiyot – qoidalar aro to'g'ri yozish emas, ba'zan, noto'g'ri yoza olish ham, ehtiros bilan aytish.

Sun'iy intellekt bu sohada qatnashishni xohlar ekan, u avval insonning bir tuyg'usini to'liq qabul qilishi kerak. Vaqt va makon tushunchasini anglashi, noto'g'ri yozishni o'rganishi.

Erkin A'ZAM,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

TAHRIRIYATDAN:

Ustoz adibning fikrlari SI sohibi – “Neyroqul Huzurjonov” tomonidan generatsiya qilindi. 😊



ADABIYOT HUQUQIY MAYDON HAMDIR

“O'zqir Sulaymon haqida hikoya” bir tomondan adabiy, ikkinchi tomondan – yuridik presedentdir. Chunki u bizni sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan huquqiy munosabatni qayta ko'rib chiqishga majbur etadi.



Asar bor. U nashr qilindi. O'quvchilar bor. Uni baho-ladi. Endi esa savol tug'iladi: bu asar muallifi kim? Agar bu asarga g o n o r a r

berilsa – u kimga beriladi?

Uning mualliflik huquqi kimga tegishli? G'oyani taqdim qilgan yozuvchigami? Mashinagami? Sichqonchani birgina tugmasini bosib, ilovani ishga tushirgan jurnalistgami? Yoki tahririyatgami?

O'zbekiston Respublikasining amaldagi mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchiligiga ko'ra, muallif asarni yaratgan jismoniy shaxsdir. Demak, sun'iy intellekt yuridik jihatdan muallif sifatida e'tirof etilmaydi. Shuning o'ziyoq butun jarayonni noaniq hududga olib kiradi.

Ammo bu yerda yana bir jihat bor: agar mashina inson yordamida ishlagan bo'lsa, ya'ni inson unga mazmun yuklagan bo'lsa – u holda javobgarlik va

mualliflik ham o'sha inson zimmasida qoladi.

Mening fikrimcha, bugundanoq “Jadid” kabi nashrlar va muharrirlar sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan kontent uchun alohida huquqiy format ishlab chiqishlari lozim. Bu faqat gonorar yoki nashr etishda qo'yiladigan maxsus belgi uchun emas, balki ertaga yuzaga chiqadigan tortishuvlar va bahslarning oldini olish uchun zarur.

Shuningdek, asarlar aslida kimning g'oyasiga tayanayotgani ham aniq ko'rsatilishi kerak. Masalan, “O'zqir Sulaymon” syujeti Xayriddin Sultonovning g'oyasiga asoslangan. Asar imzosi shu ochiq e'tirof etilishi lozim. Gazeta esa g'oya muallifini ko'zga tashlanmaydigan annotatsiyadagina eslab o'tgan. Bunday sharoitda “Neyroqul Huzurjonov” mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'lib qoladi.

Bu o'rinda “Jadid”ning bir tashabbusi menga yoqdi. Ya'ni SI taxallusini qo'shtirnoq ichida berish muallif inson emasligiga bir ishora sifatida huquqiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Ammo imlodagi qo'shtirnoqning boshqa ma'nolari ham borligi talqiniy muammolarga olib keladi. Shu bois SI kontentiga boshqa biror maxsus belgi o'yab topilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Adabiyot – faqat qalb ishi emas, bugungi kunda u huquqiy maydon hamdir.

O'tkirbek DEHQONOV,
“Huquq” gazetasi bosh muharriri o'rinbosari, jurnalist

INSON MEHNATI VA IJODI HIMOYADA BO'LMOG'I LOZIM

“Ishonch”ning o'tgan sonlaridan birida SI bilan intervyu, bu borada xalqaro maydondagi vaziyat haqida maqolalar e'lon qildik. Hammamiz yaxshi anglab turibmizki, kelajakda bu format bizni kutmoqda.

“Jadid” yana bir qadam qo'yib, SIning adabiyot imkoniyatlarini ham sinovdan o'tkazdi. “O'zqir Sulaymon haqida hikoya”ni o'qib adabiyotdan xabardor inson sifatida qiziqish, jurnalist va kasaba uyushmalari xodimi sifatida esa hadik hissi uyg'ondi.

Hadik nimadan iborat? SI hayotimizning ko'plab jabhalariga kirib kelyapti. Biroq, masalaga teranroq qaraydigan bo'lsak, jurnalistika, adabiyot – odamlar yillar davomida o'rganadigan, malaka oshiradigan, umrini bag'ishlaydigan va shu bilan birga, shu mehnat hisobiga kun ko'radigan kasb hamdir. Ya'ni jurnalist, yozuvchi, shoir, ssenariynavis ijodi evaziga oylik oladi, haq oladi, kun ko'radi. Yo'q, bulardan-da muhimroq yana bir jihat bor: odam yozganida qalb bilan yozadi, odam o'rganganida qalban og'rinadi, suyunadi, yechimlarni o'laydi, maqsadi bo'ladi. Bu sifatlar qurg'ur SIda yo'q-da! Biz uning bungacha qiymatli



bo'lgan jihati, bu qilgan ishi uchun haq so'ramasligidan xursand bo'lyapmiz. Odam yozganini o'qish o'quvchiga energiya, ichki quvvat, rag'bat, qiziqish, quvonish, bahra olish, qoniqish, kuyinish kabi hislar beradi, uning jozibasini, kuchi shunda.

Sun'iy intellekt hozircha bunga yetib kelmadi, demak, u mukammal emas. Uning tili bor, shevasi yo'q. Dili, qalbi, hislari qanchalik to'g'ri bo'ladi, mana shuni ko'p o'ylayman. Davlat, jamiyat nima bo'ladi? Vo darig'!

Nazdimda, bu borada davlatning birinchi maqsadi – inson mehnati, shu jumladan, ijod ahlining mehnatini ham himoya qilish bo'lishi lozim.

Shu bois sun'iy intellekt ishtirokidagi mehnat faoliyati uchun alohida huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni tezroq belgilashimiz kerak.

Tahririyat va nashriyotlarda SIdan foydalanish bo'yicha qonuniy tartib, me'yor va cheklavlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishi ustidan keskin hamda qat'iy nazorat bo'lishi shart va zarur.

Husan ERMATOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi,
“Ishonch” va “Ishonch-Доверие” gazetalarida hamda “Vatan” jurnali bosh muharriri

Slga IMKONIYAT BERISH KERAK

Dunyoda SI tarjimalar qilyapti, ssenariylar yozyapti, ommabop janrdagi kitoblarni chiqaryapti. Jahon adabiyoti uchun bu yangilik emas. Nega endi biz ortda qolishimiz kerak ekan?



“Jadid”ning hikoyasi – o'zbek tilidagi birinchi tajriba. U uslub, syujet, g'oya, mazmun jihatdan adabiy qoidalarga, qoliplarga mos keladi. Insoniy hislardan to'la xoli, deb aytish ham mazkur ajoyibotni yaratganlarga nisbatan adolatsizlik bo'lardi. Kim nima deganida ham, menimcha, “Neyroqul Huzurjonov” odamlarni qisman imitatsiya qila olyapti.

Albatta, u hali Navoiy, Tolstoy, Kafka, Markes yoki Abdulla Qodiriy emas. Hozircha “o'zi” ham bunga da'vo qilayotgani yo'q. Ehtimol, vaqt o'tib, SI yuksalar. Daho ijodkorga aylanan, insondan ko'ra kuchli asarlar yozar, adabiyotda o'rinni topar.

Kim biladi? Balki, kutubxonalar ikkiga bo'linar: bir tarafda sun'iy ong,

bir tarafda tirik ong yozgan asarlar turar. Balki, yuz yillardan so'ng yurtimizdagi SI kutubxonasi birinchi o'zbek tilidagi hikoyani generatsiya qilgan yasama zakovat – “Neyroqul Huzurjonov” nomi bilan atalar. Kelajakda nimalar bo'lishini aytish qiyin.

Nima bo'lganida ham, Slga imkoniyat berish kerak. Hozircha qattiq tanqid qilmaymiz. Bu gal hikoya syujeti katta adibga tegishli bo'lgani uchun asar ancha ta'sirli chiqqan. Ammo aminmanki, hikoyani shu g'oya asosida adibning o'zi yozganida yetuk asar darajasida bo'lar edi.

Nodirabegim IBROHIMOVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti doktoranti, yozuvchi

JAHON AYVONIDA

SANKSIYALAR BEKOR QILINMOQDA




AQSh prezidenti Donald Tramp Suriyadan sanksiyalarni olib tashlash niyatida ekanini ma'lum qildi. Shuningdek, u Suriya muvaqqat prezidenti Ahmad al-Sharaa bilan uchrashdi. Bu haqda “Reuters” xabar berdi.

“Men Suriya taraqqiyot etishiga imkon berish maqsadida unga nisbatan sanksiyalarni bekor qilish haqida buyruq beraman”, dedi Tramp Ar-Riyodda bo'lib o'tgan investitsiya forumida so'zlagan nutqida. “Ularning yelkasiga quyosh tegadigan vaqt keldi. Biz sanksiyalarning hammasini olib tashlaymiz. Odam, Suriya, bizni hayron qoldiradigan karomatingni ko'rsat”, deya qo'shimcha qildi u.

Trampning so'zlariga ko'ra, u Saudiya Arabistoni valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon va Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'on bilan Suriyadagi vaziyatni muhokama qilganidan keyin shunday qarorga kelgan.

PUTIN MUZOKARALARGA BORMAYDI

Rossiya prezidenti Vladimir Putin Ukrainadagi tinchlik muzokaralari uchun Istanbulga bormaydi.



Kreml veb-saytida e'lon qilingan ushbu muzokaralar bo'yicha Rossiya delegatsiyasi ishtirokchilari ro'yxatida uning ismi ko'rsatilmagan. O'sha kuni kechqurun Amerikaning “Sky News” telekanali AQSh prezidenti Donald Tramp ham Turkiyadagi muzokaralarga bormasligini ma'lum qildi.

Istanbuldagi muzokaralarda Rossiya delegatsiyasiga mamlakat prezidenti yordamchisi Vladimir Medinskiy boshchilik qiladi. AQSh tomonidan davlat kotibi Marko Rubio hamda Trampning maxsus elchilari Stiven Uitikoff va Kit Kellog ishtirok etishi kutilmoqda.

LAYK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK YO'Q

Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon ijtimoiy tarmoqlardagi layklar va reaksiyalar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qiluvchi qonunni imzoladi. Bu haqda davlat rahbari saytida xabar berildi.



2024-yil oktyabr oyida Rahmon huquq-tartibot idoralari asossiz jinoiy ish qo'zg'atayotgani uchun tanqid qilib, bu amaliyotni to'xtatishni talab qilgandi.

HAR OLT SONIYADA BIR QURBON

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rossiyadagi axborot markazi direktori Vladimir Kuznetsovning so'zlariga ko'ra, Afrika mamlakatlarida har olti soniyada ochlikdan bir bola vafot etmoqda.



“Qashshoqlik, ozic-ovqat xavfsizligi sabab har olti soniyada bir bola vafot etishi – bu juda dahshat”, deydi Kuznetsov.

U, shuningdek, sun'iy intellekt rivojlantirayotgan bir paytda Yer aholisining 50 foizi internetga kira olmasligiga e'tibor qaratdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti e'lon qilgan so'nggi hisobotda qayd etilishicha, G'arbiy va Markaziy Afrikada 36 milliondan ortiq kishi o'zi-oziga tanqisligini boshdan kechirmoqda. Hosil yaxshi bo'lmagan yil 52 milliondan ortiq odam ochlik xavfi ostida qolishi mumkin.


NIKOHGA MAJBURLAGANLAR QAMALADI

Qozog'istonda nikohga majburlanganlik uchun jinoiy javobgarlik joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu haqda Oliy Majlis deputati Murat Abenov ma'lum qildi, deb xabar bermoqda Tengrinews.kz.



Deputatning so'zlariga ko'ra, so'nggi uch yilda turmush qurishga majburlanganlardan 214 ta shikoyat kelib tushgan. Ulardan faqat 10 tasi sudgacha yetib borgan. Yuzlab jinoiy ishlar shunchaki yopib yuborilgan.

Parlament a'zolari tez orada Majlisda ko'rib chiqiladigan qonunga tahrir kiritadi. Ularning aytishicha, Qozog'istonda “kelin o'g'irlash” uchun jazo paydo bo'ladi. Buni rasman “nikohga majburlash” deb atashadi.



30 YIL MAVHUMLIKDA

birinchi o'zbek bibliografi Akbarbek Dolimov haqida

Eski Jo'va. Toshkentning eng ko'hna mavzalaridan biri. Bu o'sha makon – Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom kabi ulug' yozuvchilarimiz asarlarida ko'p martalab tasvirlagan joy. Zero, asarlar jadid ma'rifatparvarlari faoliyati Eski Jo'vada keng quloch yoyganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bunda jadidlar tashkil qilgan “Turon” kutubxonasi va qiroatxonasi – Sag'bon, Chorsu, Shayxovand Tahir, Xadra, Chig'atoy, Oqlon, Hastimom mahallalari qoq markazida joylashgan, o'rtaliq bo'lgan. Qolaversa, “Turon” nomida xayriya jamiyati, gazeta hamda truppa faoliyati har biri o'zining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan tariximizda o'chmas iz qoldirgan maskanlar sanaladi. Shundan ham anglash mumkinki, “Turon” atamasi jadid mutafakkirlari uchun Vatan timsoli sifatida muqaddas bo'lgan.



Akbarbek Dolimov

tog'alari Mirmulla, Mirmuhsin, Mirmuslim Shermuhamedovlar, Elbek, Abdulla Qodiriy, Shokirjon Rahimiy kabi jadid mutafakkirlar asarlari bilan ilk bor shu maskanda tanishdi, millatning istiqloq sari intilishiga bosh bo'lgan jadidlik harakati nafasini tuyib ulg'aydi.

Uo'ztaqdirinikutubxonadanayrotasavvur qilolmas, shu bois 1927–1928-yillarda Toshkent kutubxonachilik kursida tahsil olib, o'zi mehr qo'ygan “Turon”da ishlay boshlaydi. 1930-yillarda Akbarbek ta'limni davom ettirish maqsadida Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Bu davr Dolimovlar oilasi uchun nafaqat ilm olish, balki ular hayotida murakkab siyosiy tahdidlar kuchaygan sinovli palla ham edi. Aka-ukalar mahalla-ko'y, hukumat odamlari ko'rmasin uchun haftada, o'n kunda bir

anglashga to'siq qo'yishni maqsad qilgan edi. Akbarbek Dolimovning faoliyati esa tubdan ushbu siyosiy urinishlarga zid yo'nalishda kechdi. U kutubxonani milliy tarix va millat xazinasi bilib, asrashga intildi.

Qahramonimiz kutubxonada bir necha yil direktor bo'lib ishlarkan, uning boshchiligidagi o'zbek matbuotining ilk namunalari – jadidlar davriga mansub gazeta va jurnallarni yig'ish, tizimlashtirish va saqlash borasida samarali ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqchi”, “Xurshid”, “Tujor”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”, “Turon”, “Xalq dorifununi”, “Samarqand” kabi gazetalarning, “Oyina”, “Al-isloh”, “Al-izoh”, “Yer yuzi”, “O'zgarishchi yoshlar”, “Maorif va o'qituvchi”, “Yangi yo'l” kabi jurnallarning to'liq boylamlari shakllantiriladi.

Akbarbek Dolimov 1934-yilda Fayzulla Ubaydullayev bilan hamkorlikda 252 sahifadan iborat “Mukammal ilmiy bibliografiya” kitobini O'zbekiston davlat nashriyotida bosmadan chiqaradi. Mazkur asar o'zbek bibliografiyasi sohasida yaratilgan ilk kitob bo'lib, unda 1920–1934-yillarda o'zbek tilida nashr etilgan uch mingga yaqin kitobning umumiy tavsif va tasnifi berilgan. So'ngra 1937-yili respublika kutubxonachi va bibliograflariga metodik yordam sifatida “Unli klassifikatsiya” (Sobir Solihov bilan hammualliflikda) asarini yozadi. Shu o'rinda har ikkala kitobda birinchi muallif sifatida qahramonimiz ism-sharifi qayd etilganini ta'kidlab o'tamiz.

qaramasdan, 1941-yil 26-noyabrda tuzilgan ayblov qarorida quyidagilarni o'qiymiz: “Aksilinqilobiy kayfiyatda bo'lgan Akbarbek Dolimov 1939-yildan sovet hukumatiga qarshi yig'in (gap)larda qatnashgan va aksilsho'roviy ruhdagi guruhlar bilan partiya siyosatini tanqid qilgan”. Qarangki, ayni paytda Ikkinchi jahon urushi avj pallasiga kirayotgan, SSSRning taqdiri tobora chigallashayotgan, nemis armiyasi Maskov ostonasida turgan bir tahlilali vaziyatda Akbarbek Dolimov kabi o'zbek ziyolilarini qamash, tergov qilish, qiynoqqa solish ishlari parallel olib borilganki, sovet ma'murlari milliy oydinlar timsolida fashistdan kam xavf-xatar ko'rmasan. Ana shu xavotir bois qahramonimiz va Rahimjon Ibrohimov ustidan otuvga hukm o'qilib, mol-mulki musodara qilinadi. Ahad Tursunov va Asad Ubaydullayev esa 10 yil ozodlikdan hamda 5 yil saylash va saylanish huquqidan mahrum etiladi.

Dolimovlar sulolasidan urushga ketgan aka-ukalar uyiga qaytdi hamki, Akbarbekning taqdiridan bexabar jigarlari uni janggohlarda bedarak ketgan, degan gumonga borishadi. O'zbekning birinchi bibliograf olimi o'ttiz yil bedarakligicha qoldi. Toki...

1972-yil. Yoz kunlaridan birida No'mon Dolimovning eshigi bemahall taqillaydi. Bemavrid kelgan kishi o'zini Davlat xavfsizligi qo'mitasining polkovnigi Kazakov deb tanishtiradi. U qizining universitetga o'qishga kirayotganini aytib, yordam so'raydi. Shunda No'mon Dolimov qo'ldan kelgancha yordam berishini bildirarkan, yillarki yechilmayotgan tugun – ukasi Akbarbekning taqdiri nima bilan tugaganini hujjatlar asosida bilib berishini polkovnikdan iltimos qiladi. Yigirma kuncha vaqt o'tib, Kazakov Akbarbek Dolimovning 1942-yil 26-avgustda “xalq dushmani” sifatida o'tib tashlanganligi haqida hujjatni aqaning qo'liga tutqazadi.

Inson qadriini ko'ring, otib o'ldirilganiga 30 yil bo'lgan o'g'lonning o'limini oila a'zolariga bildirishni lozim hisoblashmagan. Hatto uning Xrushchev davrida oqlanganligi to'g'risidagi ma'lumot ham ayon qilinmagan. Yo'qsa, 1945 yili urush tugagach, onaizor Marziya Qozoqboyeva vafotiga yaqin, chiqmagan jondan umid deb o'g'li Akbarbekning taqdirini aniqlash uchun O'zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligiga so'nggi bor murojaat qiladi. Mushtipar ona o'z murojaatiga javoban dilbandining Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilingani xabarini oladi. Aslida esa u Toshkentda otib o'ldirilgan edi. Onaizor “surgun”dagi o'g'lini kuta-kuta uziladi. Momoning nabirasi Ulug'bek Dolimov keyinchalik o'sha mash'um kunlarni xotirlar ekan: “1946-yil. Qishning ayozli kechasi. Marziya buvim: “Yulduzla-a-r, jigargo'sham Akbarga salom aytingla-a-rl!” deya iltijo qilib, hayotdan ko'z yumganlari hamon ko'z oldimda” deydi...

“Turon” kutubxonasining fidoyilari ko'p edi. Kutubxona haqida gap ketga, ko'z oldimga Akbarbek Dolimov barobarida yana bir shaxs keladi. Bu inson – Ikkinchi jahon urushidan yarador qaytgan To'xta aka Sodiqov. Uning hali isitish tizimi yo'q eski binoni qishning qirchillama sovuq'ida qanday qo'riqlaganini haqida aytib berganlari esimdan chiqmaydi sira. “Qo'lyozma va nodir kitoblarni tutantiriq uchun o'g'irlab ketishmasin deb kechasi bilan o'qsiz miltiq ko'tarib, qo'rib chiqar edik”, degan edi rahmatli. Shunday fidoyi shaxslar sharofati bilan nodir kitoblar, gazeta-jurnallar bizgacha yetib keldi. Shuning o'zi aslida kitob bo'lgulik jasorat. Nazar tashlansa, mana shu jasorat kitobining har sahifasida jadid bobolarning muqaddas so'zlari, tabarruk izlari, oydin yuzlari ko'rinadi.

Vazira SOBIROVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Zokirjon Nasriddinov – 1904-yili Shahrixonida tug'ilgan. Savdogarlik bilan shug'ullangan. “Jadid” aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgach partiyadan o'chirilib, qishloq soveti raisligidan ham bo'shatilgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, SSSRdagi ocharchilik to'g'risida mish-mish tarqatganlikda, qishloq xo'jaligida zararkunandalik qilganlikda, paxta terimi bo'yicha sabotaj qilib, 1937-yilgi paxta rejasini barbod etganlikda ayblangan.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 7-fevraldagi yig'ilishi qaroriga ko'ra otuvga hukm qilingan.


Asqarali Nozirxo'jayev – 1891-yili Andijonda tug'ilgan. Quloqqa tortilib, bosmachilikka homiylik qilganlikda ayblangan. “Milliy ittihad” aksilinqilobiy millatchi tashkilotining a'zosi bo'lganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Quloq qilingandan so'ng 1931-yilda yashash joyidan qochib, qishloqmaqishloq yurganlikda ayblangan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ning 1937-yil 10-dekabrda yig'ilishi qaroriga ko'ra 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 5-dekabrda hisoblangan.

Nozirjon Rasulov – 1894-yili Andijon uyezdi Asaka rayonida tug'ilgan. Hujjatlariga ko'ra, u “Sho'royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Aholi orasida muntazam ravishda mag'lubiyatchilik kayfiyatidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ning 1937-yil 8-dekabrda yig'ilishi qarori bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 2-dekabrda hisoblangan.

Mulla Qambar Sodiqov – 1879-yili Andijonda tavallud topgan. “Sho'royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1930-yildagi kolxozga qarshi aksilinqilobiy isyonkor harakatning faol ishtirokchisi bo'lgan. Kolxozchilar orasida mag'lubiyatchilik kayfiyatidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, burjua davlatini maqtaganlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 1937-yil 21-noyabrda 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-oktyabrda hisoblangan. Keyinchalik oradan ancha vaqt o'tib, 1989-yil 10-iyulda Mulla Qambar Sodiqov oqlangan.

Omon Sulaymonov – 1901-yili Asaka shahrida tug'ilgan. VKP(b)ning sobiq a'zosi bo'lgan. Bosmachilikda ishtirok etganligi uchun partiyadan o'chirilgan. Yetti militsioner bilan birgalikda dushmanga qarshi otishmalarda ishtirok etgan. Qamoqqa olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. 1925-yildan 1930-yilgacha aksilinqilobiy millatchi “Haqiqat” guruhi a'zosi bo'lganlikda, xalq dushmanlariga hamdardlik bildirganlikda, hukumat sha'niga uydirma gaplar aytganlikda ayblangan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ning 1938-yil 13-fevraldagi yig'ilishi qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor
Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi
(Davomi kelgusi sonda).



“Bokalonlarimiz kitob topishga qiynalar edilar: hozir esa biz kitob tanlashga qiynalamiz. Mutolaa uchun juda ziyrak bo'lmoq kerak.

Jon LEBBOK



“Turon” kutubxonasining 1920-yillardagi ko'rinishi.

(shunda ham qosh qoraygach) ota-onasi quchog'iga oshiqib, tong yorishmasdan o'qish-o'qishiga jo'nab ketardi. Ular ming mashaqqat bilan birin-ketin oliy o'quv yurtlarini bitirib, xalq xizmatiga kirishdi.

Akbarbek Dolimov “Oktyabr” kutubxonasida bibliograf sifatida ish boshlab, tez orada kutubxona rahbari darajasiga ko'tariladi. Ha, bu o'sha – “Turon” kutubxonasi. Rasmiy hujjatlarda “Oktyabr” nomi bilan keladi, 64 yil (1928–1992) shu nomda atalgan. Bu o'zgarishdan muddao bor edi, albatta. “Turon” o'zbek xalqining qadim Vatani, boy tarixi va o'zligini ifoda etardi. Sovet mafkurasi uchun esa bu atama shu holicha xavf tug'dirar, shu bois ushbu nomni o'zgartirish orqali hukumat uni xalq xotirasidan o'chirishni, tarixiy merosni

1930-yillarda u bilan birga kutubxonada ishlagan atoqli manbashunos Abdulla Nosirov (Nosixiy) so'zicha: “Akbar Dolimov kutubxonachilik ishining katta bilimdoni edi. “Turon” kutubxonasining respublika miqyosida e'tibor qozonishida, ulkan ma'rifat o'chog'iga aylanishida uning hissasi salmoqli bo'lgan. O'sha yillarda “Oyina”, “Sadoyi Farg'ona”, “Turkiston” taxlamlarini tartibga solish ancha og'ir kechgan. U Samarqandda Hoji Muin Shukrullo, Abduqodir Shakuriy; Qo'qonda Po'latjon domla Qayumiy, Abdurahob Ibodiy; Toshkentda Abdulla Avloniy, Muhibul qori Orifiylar bilan aloqada bo'lib, ulardan yetishmayotgan numirlarni olib to'ldirdi”.

1930-yillarning ikkinchi yarmidan qama-qamalar avj olgach, 1941-yilning noyabr oyida NKVD xodimlari “Oktyabr” kutubxonasining biryo'la to'rt nafar xodimi – Akbarbek Dolimov, Rahimjon Ibrohimov (o'sha yili direktor bo'lgan), Asad Ubaydullayev, Ahad Tursunovni qamoqqa oladi. Dastlabki tergov bir hafta uzluksiz davom etadi. Tergovda huquqiy me'yorlarga umuman amal qilinmas, Akbarbek Dolimovda esa jamiki qiynoq, so'roqlarga javob bitta edi: “Menga yopishtirilayotgan ayblarning birortasini qabul qilmayman”. Shunga



MULOHAZA

O'ZANLARGA QACHON QAYTAMIZ?

Jiyanim qo'ng'iroq qilib qoldi:
– Ammajon, suyunchi bering, o'g'illi bo'ldim.

– Qutlug' bo'lsin, muborak bo'lsin! – xursand bo'lib ketdim xushxabardan, – Istiqboli nurli bo'lsin, ilohim...

– Rahmat, ammajon, aytganingiz kelsin. Ismini Umar qo'ymoqchiman, nima deysiz?

– Umarbek yaxshi ism. Umarjon desa ham bo'ladi. (Har qalay qulog'imga shunday eshitildi).

– Yo'q, Umar emas, “O” bilan boshlanadi, Umar, ya'ni arabcha haqiqiy aytilishini qo'ymoqchiman. Hech qanday “bek”, “jon” qo'shimchalari kerak emas...

O'ylab qarasam, millatimizga qo'yilgan ismlarning to'qson foizini arabiy va forsiy ismlar tashkil etar ekan. Har qalay “jon”, “xon”, “bek” qo'shimchalari bilan ularni “o'zimizniki” qilib olamiz. Aslida millatga xos ism ham milliy qadriyat sanaladi. O'zligini anglagan millat egalari buni unutmasligi kerak.

Akayo, Genrix, Vladimir, Jun-san, Vaso, Akshay, Syaomin... Bu ismlarni eshitgan zahoti qaysi millat vakili ekanligini anglab yetdingiz, shundaymi? Ba'zi ismlar ko'p millatlarda uchraydi, masalan Denis. Ammo ularning familiyalari orqali bemaol millatini ajrata olasiz. Misol keltiradigan bo'lsak, gruzin millatining familiyalari “dze” yoki “shvili” qo'shimchalari bilan aytiladi: Maxarashvili, Shvenadze, Beridze... Arman millatida “yan” qo'shimchasi mavjud. Rus millati ism-shariflarida esa “vich” bilan “-ov”, “-yev” bor. Bu o'z davrida bizga ham “meros” bo'lib o'tgan.

Ismlari biz bilan bir xil bo'lgan qo'shni davlat Tojikistonda familiyalar “zoda” qo'shimchasi bilan yuritiladi: Qurbonzoda, Rahmonzoda... Ikki-uch yil avval ijtimoiy tarmoqlarda berilgan xabarga ko'ra, ushbu davlatda tug'iladigan chaqaloqlarga faqat tojik, ya'ni forsiy ism qo'yilishi haqida qaror chiqqanini eshitgandim. Bu xabar qay darajada to'g'ri bilmadim, biroq buni eshitib xursand bo'lganman. Chunki ism har bir millatning o'zligini anglatib turishi kerak.

Xorijda davlat xizmatida ishlovchi o'g'lim qo'ng'iroq qilib qoldi. Salom-alikdan so'ng muddaoga o'tdi:

– Kelingiz shu kunlarda ko'payadigan, ayajon. Farzandimga o'zbekcha ism qo'y-moqchiman.



– To'g'ri o'ylabsan, o'g'lim, – xursand bo'ldim fikridan. – Ism ham millatni anglatib turuvchi qadriyat.

– Shunday, ayajon. O'zingizga yoqqan o'zbekcha ismlardan yozib yuboring...

Yevropada tug'iladigan nabiramga ism tanlash uchun kutubxonalardan turkiy ismlar kitobini izlay boshladim. Baxtga qarshi bunday kitob topa olmadim. Umumiy ismlar kitobida esa asosan arabiy va forsiylari joy olgan. Yurtimizda tug'ilayotgan chaqaloqlarga asosan arabiy ismlar qo'yilmoqda. Albatta, bu islom diniga e'tiqod qilishimiz bilan uzviy bog'liq.

Shu o'rinda savol tug'iladi: turk eli farzandlari nima uchun ajdodlaridan meros

turkiy ismlarni unutishi kerak? Nima uchun yurtimiz egalari o'zga millat ismlari bilan dunyoga bo'y ko'rsatishi kerak?! Nima uchun Turon elida yashab o'tgan ota-bobolarimiz, ena-momalarimiz ismi chetda qolmoqda, unutilmoqda? Ko'ksida Vataniga, millatiga muhabbati sobit inson borki, buni o'ylab ko'rishi lozim.

Turkiya davlati kinorejissyorlari tomonidan suratga olingan “Choliqushi” badiiy filmi barchamizga yaxshi tanish. Yodingizda bo'lsa, shu filmda qizlardan iborat sinf o'quvchilari ustozlariga bir-bir o'zlarini tanishtiradi: Ayshe, Ayshe... ya'ni qizlarning asosiy qismining ismi Ayshe bo'ladi. Hozirda esa turk filmlaridagi qahramonlarning

ismlari deyarli turkona: Chechak, Go'zal, Sevgi, Sevinch, Qorako'z, Turon, Arslon, Qilich... Qanday go'zal ismlar. Darhaqiqat, qadim ajdodlarimiz tabiat bilan uyg'unlikda ism qo'yishgan. Qo'shnimiz Qozog'istonda ham bizga nisbatan turkiy ismlarga ko'proq e'tibor qaratilishiga guvohman.

Nevaramga ism tanlash jarayonida turkiy ismlar berilgan kitobni topa olmagach, ijtimoiy tarmoqdan foydalandim. Afsuski, tarmoqda ham turkiy ismlar ro'yxati berilmagan. O'zbekcha ismlar ma'nosi degan bo'limda esa uchta rukn bo'lib, birinchisi “Arabcha”, ikkinchisi “Boshqalar”, uchinchisi “Fors-tojikcha”, deya belgilanibdi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, o'zbekcha ismlar bo'limida “O'zbekcha” degan ruknning o'zi yo'q. Bu qay darajada afsuslanarli ekanligini anglab yetgandirsiz?!

Men muxbir sifatida vatanparvarlik ruhida ko'plab tadbirlarda ishtirok etganman. Biroq mana shu yig'inlarning birortasida o'g'il-qizlarimizga o'zbekcha ism qo'yish haqida so'z yuritilganini eslay olmayman. To'g'rirog'i, bu borada biror marotaba fikr bildirilmagan, bahs-munozara bo'lmagan.

Donolarimiz “Ismlarda hikmat bor”, deyishadi. Darhaqiqat, qadim ajdodlarimiz shu haqiqatga qattiq amal qilishgan. Chaqaloqqa ism qo'yishga katta e'tibor qaratilgan. Yangi mehmonga kattalar ishtirokidagi marosim orqali ism tanlangan. Ma'nosi, jarangdorligi inobatga olingan.

O'zbekcha ismlarni izlash chog'ida Otabek va Kumush ismlariga duch keldim. Qarang, o'zbekning ulug' yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining betakror asari “O'tkan kunlar”ning bosh qahramonlariga o'zbekcha ism tanlagan. Bu bejiz emas, albatta. Millat erki deya ko'ksi kuyib o'tgan, jadidlik harakatining ilg'or vakillaridan bo'lgan yozuvchining chin ma'noda vatanparvarligidan dalolat bu. Millatsevar inson o'zgacha bo'lishi mumkin emas.

Yaqinda hamkasblarimdan biri nabirasiga Alp-Arslon, deya ism qo'ydi. Turkiylarga xos qanchalar chiroyli ism. Umidim, tilagim yurtimizda mana shunday Alp-Arslon, Alp-Tegin, Oybarchin va To'maris kabi turkiy ismlar ko'paysin.

Zulfiya YUNUSOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

NIGOH

HAZIL
ORTIDAGI

Tasviriy san'at bu – sukutdagi so'z, chizgidagi falsafa, rangdagi ruhiyat. Ayniqsa, illyustratsiya – bu xalq qalbiga kirib boruvchi chuqur tasvir tilidir. Yaqinda Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabida bo'lib o'tgan O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi mohir rassom, karikaturachi Husan Sodiqovning “Turkum illyustratsiyalar” nomli shaxsiy ko'rgazmasi ayni shu haqiqatni yana bir bor isbotladi. Ko'rgazma yurtimizning taniqli rassomlari, san'atshunoslar, dizayn yo'nalishi o'qituvchilari va yosh iste'dodlarni bir maskanda jamladi. Har bir nigohda – havas, har bir yuzda – hayrat, har bir suhbatda esa san'atga bo'lgan mehr aks etdi.

O'ttiz besh yildan buyon illyustratsiya sohasida faoliyat yuritayotgan Husan Sodiqov ijodi nafaqat texnik mahorat, balki o'zbek xalqining mentalitetini, qadriyatlarini, hayot falsafasini, yumorini o'zida mujassam etgani bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “O'zbek, ozarbayjon, turk afandilari” hamda “Qozoq Aldarko'sasi” turkumlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Bu asarlarda kulgi ortidagi haqiqat, soddalik zahiridagi teranlik yashiringan. Har bir obraz tanish, ammo noodatiy; har bir sahna kulgili, ammo jiddiy o'ylantiruvchi. Aslida, rassomning vazifasi ham shu – voqelikni chizish emas, balki uni anglashga undovchi vosita yaratish.

Husan Sodiqov nafaqat rassom, balki yosh ijodkorlar uchun muallim, tomoshabin uchun suhbatdosh, jamiyat uchun esa oynadir. Uning bir necha karikataturalari “Jadid” gazetasining hajviy ruknlarini bezab kelmoqda. Bu asarlar orqali rassom o'zining dolzarb mavzularni qanday yumor bilan his etishini, milliylik va zamonaviylikni qay yo'sinda uyg'unlashtirishini yana bir bor namoyon etadi. Ko'rgazmadagi har bir asar sizga butun boshli



dramani hikoya qilib bera oladi. Ular ko'z bilan emas, yurak bilan ko'riladi, his etiladi.

Husan Sodiqovning ko'p yillik ijodiy tajribasi yoshlarga yo'riq, estetik zavq, ilhomboxsh kuch bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlarida ijodkorning o'tkir zehni, sof qalbi, o'zgacha dunyoqarashi bilan birga o'zligimizni, milliy qadriyat va illatlarimizni ham yaqqol ko'ramiz. Zero, chinakam san'at asari bu zamonlarni bog'lovchi ko'priki, dilni uyg'otuvchi sehr, ongni boyituvchi merosdir.

Farangiz ABRUYEVA,
O'ZJOKU talabasi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Bugun dunyo sahnasida yangi qahramonlar paydo bo'ldi. Ular raqamli olamda tug'ildi, internet bilan birga ulg'aydi. Ular voyaga yetganda YouTube allaqachon mavjud edi.

Bu avlod boshqalar kabi telefonni faqatgina aloqa vositasi emas, balki shaxsiy yordamchisi, o'z fikr va hissiyotlari, bilim va

“ZED”AVLODNI
YAXSHI KUTIB OLING!

tajribasini ulashuvchi ijodiy maydon, vaqti-vaqti bilan terapevt, ko'ngilochar, hatto daromad keltiruvchi vosita sifatida ham ko'radi.

“Zed” avlod vakillari birdaniga bir nechta ilovadan foydalanib, ayni paytda “kontent” yaratishni, uni minglab, millionlab kishilarga namoyish etishni, qo'lidagi telefon, o'zi yuritadigan blog yordami bilan jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazishni eplayadi.

Albatta, ularning qobiliyatini faqat texnologiyalar bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu avlod o'tkir hissiyotli, tanqidiy fikrlovchi, erkinlikni hamma narsadan ko'proq qadrllovchi va eng muhimi, o'z ovozining baralla yangrashini, tinglanishini, inobatga olinishini istaydigan xilidan. Ular jim yashashni emas, qoliplar, stereotiplar nima uchun borligini bilishni istashadi, ularni buzishga intilishadi. Umumiylikdan, bir xillikdan qochib, o'ziga xoslikka talpinishadi...

TILBILIM

“O'TIR” SO'ZI QANDAY PAYDO BO'LGAN?

O'tirmoq fe'lini katta-yu kichik yaxshi tushunadi. Izohga hojat yo'q. Bu so'zning ildizi o't qadimgi tilimizda ot bo'lgan va oturdi shaklida bo'lgan, o'tiradigan joyga otruq deyilgan. Menimcha, bu so'z ro'baro', yuzma-yuz bo'lmoq ma'nosidagi otri so'zidan kelib chiqqan bo'lsa kerak.

“At-tuhfa” lug'atida ham bu so'zlar yuqoridagiday ko'rinishda ko'rsatilgan.

Balki shuning uchun ham boshqa avlod vakillariga ular g'alatidek tuyular. Chunki bugunning bolalari hayotni ilgari bo'lmagan shaklda his qilishmoqda. Ular atrofda muammolarga ko'z yuma olmaydi, o'zi yashayotgan jamiyatni, mamlakatni, jahonni, Yerni o'zgartirish, bugungidan-da yaxshiroq qilishga harakat qiladi.

“Zed” avlod vakillarini eshitish, tushunish va eng muhimi – ishonish kerak. Ular kelajak emas, allaqachon bugunning o'zida o'zgarish boshlayotgan kuchdir. Katta hayotga qadam qo'yishga, osmon-osmon orzularini amalga oshirishga intilayotgan bu o'smirlarning ko'ksidan itarish, kamsitish emas, qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, yo'l ko'rsatish – vazifamiz.

Abbos G'ULOMJON o'g'li
Facebook

Jadid
adabiy, ijtimoiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**“SHAHIDLILAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Shavkat Bobomurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi...

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19729

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 015

Lotin yozuvida – 11 714

Media kuzatuvchilar – 43 790

Buyurtma: G – 540.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.**

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz